

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“FILOLOGIYA” FAKULTETI (Adabiyotshunoslik yo’nalishi)

2-BOSQICH MAGISTRANTI

SHUKUROVA AMIRANING

MAGISTRLIK DISERTATSIYA ISHI

MAVZU: “ALISHER NAVOIY IJODIDA ADIB AHMAD
QARASHLARI TALQINI”

Ilmiy rahbar: f.f. d. Salohiy D.

SAMARQAND– 2015

REJA

I. Magistrlik ishining umumiy tavsifi:

II. Asosiy qism:

1-bob: Adib Ahmad hayoti va adabiy merosini o'rganish muammolari.

- 1.1. Adib Ahmad hayoti va adabiy merosini o'rganish tarixiga bir nazar.
- 1.2. Adib Ahmad shaxsiyati va adabiy merosini o'rganishda Alisher Navoiy asarlarining o'rni.

2-bob: “Hibat ul-haqoyiq” va Hayrat ul-abror” dostonlarining qiyosiy tahlili.

- 2.1. “Hibat ul-haqoyiq” va Hayrat ul-abror” dostonlari kompozitsiyasida mushtaraklik va xususiylik.
- 2.2. “Hayrat ul-abror” dostonining g'oyavoy mundarijasida Adib Ahmad axloqiy qarashlariga hamohanglik.

3-bob: Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida Adib Ahmad hikmatlarining badiiy ifodasi va takomili.

- 3.1. “Hibat ul-haqoyiq” dostonidagi ijtimoiy qarashlar va ularning Alisher Navoiy ijodiga ta'siri.
- 3.2. Alisher Navoiyning inson va olam haqidagi falsafiy qarashlari, ularda Adib Ahmad hikmatlarining ta'siri.

III. Xulosa.

IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

MAGISTRLIK ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. “Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar mobaynida yaratib kelingan g’oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan nihoyatda muhim vazifa”¹ga aylandi. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o’ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo’lida muvaffaqiyatli ravishda olg’a siljitishda hal qiluvchi, ta’bir joiz bo’lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir”.² Millat ma’naviy kamolotining asosiy omillaridan biri bu badiiy ijod durdonalariga munosabat, unga oshuftalik, buyuk bobokalonlarimiz qoldirgan bebaho ijod namunalaridan bahramand bo’lish, ularni har tomonlama tahlil, tadqiq va tadbiiq etishdir. Bu borada “avliyolar avliyosi, mutafakkirlar mutafakkiri va shoirlar sultoni” Alisher Navoiy adabiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Yurt

boshimiz asosli tarzda ta’kidlaganlaridek, “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy sha’nu shuhratini dunyoga tarannum qilgan so’z san’atkoridir... olamda turkiy va forsiy tilde so’zlashuvchi biron-bir inson yo’qki, Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa”.³ Darhaqiqat, Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosi besh yarim asr davomida turli millat vakillari bo’lgan adabiyotshunos, sharqshunos olimlar tomonidan tadqiq va tahlil etilmoqda. Xususan, Alisher Navoiy ijodining undan oldin yashagan, unga zamondosh bo’lgan hamda undan keyin yashab ijod etgan Sharqning boshqa mutafakkirlari adabiy

¹ Karimov. I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. – T., 1998, 524-b.

² Karimov. I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008-yil. 39-bet.

³ Karimov. I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008-yil. 47-bet.

merosi bilan munosabati masalasida qator-qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Shular qatorida turkiy mumtoz adabiyotning ilk namoyandalaridan biri bo'lmish Adib Ahmad Yugnakiy va uning "Hibat ul-haqoyiq" asari bilan Navoiy ijodining bog'liqlik jihatlariga doir turli hajm va mazmundagi ilmiy izlanishlarni ham qayd etish mumkin. Ma'lumki, Adib Ahmad shaxsiyati haqida ma'lumot beruvchi yagona manba (o'z asarini inobatga olmaganida) Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasidir. Binobarin, Ahmad Yugnakiy hayoti va adabiy merosi haqida fikr yuritgan har bir kishi Alisher Navoiy asariga ham murojaat etadi. Biroq Alisher Navoiy va Adib Ahmad o'rtasidagi ijodiy munosabat "Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi ma'lumotlar bilangina chegaralanib qolmaydi. Badiuzzamon Mirzoga yozgan maktubida ham Navoiy Ahmad Yugnakiy hikmatidan foydalanganligi sir emas.

Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida, ayniqsa, "Xamsa" tarkibidagi dostonlar, "Lison ut-tayr", "Nazm ul-javohir", "Mahbub ul-qulub" kabi axloqiy-falsafiy mazmun-mohiyatga ega bo'lgan asarlarifa Adib Ahmad hikmatlariga hamohang bo'lgan fikr va qarashlarga duch kelamiz. Bu borada, ayniqsa, Navoiy ijodining axloqiy-ma'naviy qomusi bo'lmish "Hayrat ul-abror" dostoni alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday adabiy ta'sir nishonalari ikki xil hodisa bilan asoslanadi:

1. "Xeyli elning muqtadosi" bo'lgan Adib Ahmadnidg "...mavoizu nasoyih"ga to'la hikmatlari Navoiy yashagan davrda "aksar turk ulusida ... shoye" edi. Ular bilan bevosita tanishgan Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy qarashlari shakllanishida mazkur hikmatli to'rtliklarning muayyan ta'siri bo'lganligi shubhasiz.

2. Sharqning deyarli barcha mutafakkirlari kabi Adib Ahmad ham, Alisher Navoiy ham birinchi navbatda islomiy manbalar, xususan, "Qur'oni Karim" oyatlari, Payg'ambar (a.s.) hadislar hamda din va tasavvuf

namoyandalarining hikmatlaridan ozuqlangan. Binobarin, ularning qarashlarida mushtaraklik, hamohanglikning mavjud bo'lishi tabiiydir.

Shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy ijodi, aniqrog'i, uning axloqiy-tarbiyaviy va falsafiy qarashlarini Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari bilan qiyosan o'rganish navoiyshunoslikning muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Bu birinchi navbatda Ahmad Yugnakiy hayoti hamda adabiy merosiga yana bir bora ilmiy nazar tashlash, uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan bahsu munozaralarga munosabat bildirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, Alisher Navoiy asarlarining mazmun va g'oyaviy mundariyasi haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lish imkonini yaratadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Ahmad Yugnakiy shaxsiyatini aniqlashda Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasidagi ma'lumotlarning ahamiyati haqida adabiyotshunoslikda bir qator fikr-mulohazalar bildirilgan. Abdurauf Fitrat 1928-yilda nashr ettirilgan "Aybatul haqoyiq" nomli maqolasida Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasiga ham murojaat etib, Adib Ahmadning Imom A'zam (699-767 yillarda yashab o'tgan ahli sunnadagi eng katta mazhab asoschisi No'mon ibn Sobit)dan saboq olganligi haqidagi ma'lumotni "afsonaviy xabar" deya baholaydi. Uning fikricha, "Hibat ul-haqoyiq" dostonining tili va uslubi "Qutadg'u bilig"dan bir-ikki asr so'ngra yozilganini tasdiqlaydi. Uzoq yillar davomida adabiyotshunoslikda hukmron bo'lgan Fitratning mazkur fikrlari o'tgan asrning 90-yillarida qayta qizg'in munozaralar maydoniga aylandi. Adabiyotshunos M.Imomnazarov "Adib Ahmad qachon yashagan?" nomli maqolasi⁴da Navoiy ma'lumotlariga tayangan holda Adib Ahmadning VIII asrda yashaganligini qayta asoslashga harakat qildi. Shundan keyin 1995-1998 yillar mobaynida Q.Mahmudovning "Manbalarni qaytadan

⁴ "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 1995-yil, 31-mart.

ko'rmoq kerak", E.Umarovning "Tili ham qadimiy", I.Haqqulning "Ahmad Yugnakiy Imom A'zamga zamondosh bo'lganmi?", H.Boltaboyevning "Butun ehtimollarning kuchlisi...", H.Rajabovning "Hibat ul-haqoyiq" qachon yozilgan" kabi maqolalar nashr ettirildi. 2001-yilda "Hibat ul-haqoyiq" poetikasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan G.Xo'janova ushbu munozaralarda bildirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib: "... "Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi... ma'lumotlar tarixiy emas, balki manoqibiy mazmunga egadir... M.F.Ko'prulu, Abdurauf Fitrat, R.R.Arat, Y.E.Bertels, Q.Mahmudov, N.Mallayev, T.Takin⁵ kabi o'nlab yirik olimlarning xulosalariga qo'shilamiz va "Hibat il-haqoyiq" XI-XII asrlar adabiy mahsuli deb hisoblaymiz" deya xulosa bildiradi [39. 9]⁶

Adabiyotshunos Q.Tohirovning 2001 yilda e'lon qilingan "Alisher Navoiy va Adib Ahmad" nomli maqolasida [36] uzoq yillik munozaralarning mantiqiy yakuni bo'la oladigan qiziqarli fikr-mulohazalar bildirilganki, ular haqida ishning asosiy qismida batafsil ma'lumot beriladi.

Adib Ahmad hayoti va adabiy merosiga doir ma'lumot beruvchi o'quv va ilmiy adabiyotlarda Alisher Navoiyning Badiuzzamon Mirzoga yozgan maktubida ham Navoiy Ahmad Yugnakiy hikmatidan foydalanganligi qayd etiladi. Biroq bu ma'lumotlarda ilmiy munosabat yoxud matniy tadqiq kuzatilmaydi.

Adabiyotshunos S.Tohirovning 2009 yilda nashr ettirilgan "Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" dostoni: matn, tadqiq va tahlil" nomli risolasida [34] "Hibat ul-haqoyiq" dostoni tarkibidagi ayrim to'rtliklarning Alisher Navoiy asarlari bilan qiyosan tahlil etilganligini ham qayd etib o'tish joiz.

⁵ Mazkur ro'yxatga H.Boltaboyev, I.Haqqulni ham kiritish mumkin.

⁶ Katta qavs ichidagi raqamlar manbaning adabiyotlar ro'yxatidagi tartib raqami hamda sahifasini bildiradi. Birdan ortiq manbaga havola etilganda, ularning tartib raqamlari vergul orqali ajratiladi.

Umuman olganda, Alisher Navoiy ijodida Adib Ahmad qarashlarining badiiy ifodasi masalasi adabiyotshunoslikda alohida tadqiqot doirasida hozirga qadar o'rganilmagan muammolardandir.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Bugungi kunda adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning istiqbol rejasini mumtoz adabiyotimizning jahon adabiy jarayoni tarixi va taraqqiyotidagi mavzui, mumtoz asarlarimizning mavzu va g'oyalar ko'lami, badiiy ilmiy-nazariy jihatdan xolisona tadqiq etish belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o'zbek adabiyoti tarixi kafedrasi 2011-2015- yillar uchun "Alisher Navoiy ijodi va adabiy ta'sir masalasi" mavzusini tanlagan bo'lib, mazkur tadqiqot ushbu keng qamrovli muammo bilan bog'liq holda Alisher Navoiy ijodida Adib Ahmad Yugnakiy hikmatlarining ta'siri masalasini yoritishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi Alisher Navoiyning axloqiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-falsafiy qarashlarida Ahmad Yugnakiy hikmatlarining ta'siri va o'zaro hamohanglik masalasini tadqiq etishdir. Shu munosabat bilan Navoiy asarlarining Adib Ahmad hayoti va adabiy merosini o'rganishdagi ahamiyati masalasiga oydinlik kiritish ham maqsad qilingan.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi:

- Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va adabiy merosini u yoki bu darajada yoritishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlaridagi fikr-mulohaza va ma'lumotlarni umumlashtirish, ilmiy tahlil etish;
- Alisher Navoiy asarlari, xususan, "Nasoyim ul-muhabbat" va "Munshaot"da adib Ahmadga murojaat etilgan qismlarni

matnshunoslik va adabiyotshunoslik mezonlari asosida tadqiq va tahlil etish;

- “Hibat ul-haqoyiq” hamda “Hayrat ul-abror” dostonlarini kompozitsiya, mazmun va g’oyaviy mundarija nuqtai nazaridan qiyosiy-tipologik tadqiq etish;
- Alisher Navoiyning boshqa asarlaridagi Adib Ahmad qarashlari bilan hamohang va mushtarak jihatlarni o’rganish, ularning umumiy manbaini imkon qadar aniqlash;
- Alisher Navoiy ijodida Adib Ahmad Yugnakiy hikmatlarining ta’siri masalasida muayyan xulosalarga kelish.

Tadqiqotning ob’yekti va manbalari. Tadqiqotning asosiy obyekti Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostoni hamda Alisher Navoiyning axloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-falsafiy mazmundagi asarlaridir.

Magistrlik dissertatsiyasini bajarishda “Hibat ulhaqoyiq” dostonining Q.Maxmudov tomonidan tayyorlangan tanqidiy matni [25, 57], Alisher Navoiy qalamiga mansub bo’lgan “Hayrat ul-abror” [49, 50, 55], “Nazm ul-javohir” [53], “Mahbub ul-qulub” [52] kabi asarlarning tanqidiy matnlari hamda tabdil va nashriy bayonlaridan asosiy manbalar sifatida foydalanildi. Tadqiqotda, shuningdek, ilmiy manba sifatida turk olimi Banarli Nihad Semi [11]; rus olimi Y.E.Bertels [12, 13]; o’zbek adabiyotshunoslari Q.Maxmudov [25], B.Valixo’jayev [14, 15, 16], A.Qayumov [42], M.Muhiddinov [26], G.Xo’janova [39], S.Tohirov [33, 34] kabilarning ishlaridan o’rni bilan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologiyasi va metodi. Milliy istiqlol mafkurasi hamda yurtboshimizning milliy mafkura va madaniyatga doir dasturiy ko’rsatmalari, gumanitar sohalar va umuman ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo’nalishlariga oid qarashlari ushbu magistrlik ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Mavzuni izchil va atroflicha yoritish maqsadida ilmiy bilishga asoslangan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, ilmiy tavsif va sharh metodlaridan foydalanildi. Adabiyotshunoslik sohasida fundamental tadqiqotlar yaratgan Y.E.Bertels, A.Haitmetov, B.Valixo'jayev, A.Qayumov, R.Orzibekov, I.Haqqulov, M.Muhiddinov, D.Salohiy hamda ushbu mavzuga bevosita aloqador bo'lgan Q.Maxmudov, Q.Tohirov, G.Xo'janova S.Tohirov kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:

Alisher Navoiy yashagan davrda (XV asrning II yarmi) Adib Ahmad Yugnakiyning axloqiy-falsafiy to'rtliklari ham og'zaki, ham yozma tarzda keng tarqalgan.

XV asrning I yarmida Zaynulobiddin tomonidan Samarqandda ko'chirilgan hamda uning uchun asos bo'lgan qo'lyozma "Hibat ul-haqoyiq"ning yagona nusxasi emas. Alisher Navoiy har holda asarning boshqa nusxasidan yoki og'zaki tarzda tarqalgan variantlaridan foydalangan.

Alisher Navoiyning axloqiy-ta'limiy va ijtimoiy-falsafiy tafakkuri shakllanishida Ahmad Yassaviy, Hakim Ota singari turk mashoyixlari bilan bir qatorda Adib Ahmad qarashlarining ta'siri ham sezilarli.

Alisher Navoiyning Adib Ahmad adabiy merosidan bahramand bo'lganligi nafaqat "Nasoyim ul-muhabbat"dagi ma'lumotlar, balki boshqa asarlaridagi fikr-qarashlari bilan ham asoslanadi.

Alisher Navoiy va Adib Ahmad qarashlaridagi hamohanglik va mushtarak jihatlar bevosita ta'sirlanish bilan birga umumiy manbalardan bahramand bo'lish sifatida ham namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ushbu magistrlik ishida tadqiq etilgan ayrim masalalar adabiyotshunoslikda qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan esa-da, hozirga qadar o'zining aniq yechimini topgan emas. Bu esa ishning amaliy ahamiyatini belgilaydigan dastlabki omillardandir. Ishda

Alisher Navoiy asarlari Ahmad Yugnakiy adabiy merosi bilan ilk marotaba alohida tadqiqot doirasida qiyosan o'rganilmoqda. Tadqiqot materiallari, unda bildirilgan fikr-mulohaza va xulosalar Akademik litsey va KH kollejlari hamda oily ta'lim bakalavriat bosqichining "Filologiya va tillarni o'qitish" yo'nalishi o'quv dasturlariga kiritilgan "Adabiyot", "O'zbek mumtoz va milliy uyg'onish davri adabiyoti tarixi" fanlari yuzasidan yaratiladigan o'quv adabiyotlarining XII-XV asrlarga oid bob va fasllarini to'ldirish, takomillashtirish imkonini berishi mumkin.

Ushbu tadqiqot ishi kelajakda Alisher Navoiy adabiy merosini Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy va boshqa mutafakkir shoir va hikmatgo'ylar ijodi bilan qiyosan tadqiq va tahlil qilishda ilmiy manba vazifasini o'tashi shubhasiz.

Ishning tuzilishi va hajmi. Magistrlik dissertatsiyasi Kirish har biri ikkita faslni o'z ichiga oladigan uchta asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 88 sahifani tashkil etadi.

1-BOB:**ADIB AHMAD HAYOTI VA ADABIY MEROSINI O'RGANISH
MUAMMOLARI.****1.1. Adib Ahmad hayoti va adabiy merosini o'rganish tarixiga bir nazar.**

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan turkiy adabiyotda didaktik yoki pand-nasihat ruhidagi asarlar alohida mavqega ega ekanligi sir emas. Islomdan oldingi davrlarga mansub bo'lgan qadimgi og'zaki va yozma ijod namunalarida ham inson xulqi va ma'naviyatiga oid qarashlar turli shakllarda o'z ifodasini topganligi shu davr adabiyotiga oid manbalarda qayd etilgan. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asari tarkibida keltirilgan ko'plab adabiy parchalarda pand-nasihat mazmuni ifodalanganligi, ularning aksariyati islomdan oldingi davrlarning ijodiy mahsuli ekanligi bir qator ilmiy tadqiqot va o'quv adabiyotlarda e'tirof etiladi [5, 6].

Biroq tan olish lozimki, turkiy adabiyotda tom ma'nodagi didaktik adabiyotning shakllanishi bu tilda so'zlovchi xalqlar orasida islom madaniyatining yoyilishi bilan bog'liqdir. Qur'on oyatlari hamda Payg'ambar (a.s.) hadislarining mazmun-mohiyatini sharhlash, keng jamoatchilikka yetkazish, tafakkuriga singdirish, shu yo'l bilan mukammal axloq egasini tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida pandnoma ruhidagi adabiyot X-XI asrlarda madaniyat tarixining o'ziga xos hodisasi sifatida shakllandi va rivojlandi. Bu borada tasavvuf ta'limotining turkiyzabon xalqlar madaniyatiga kirib kelishi ham muhim omil vazifasini bajardi. XI-XII asrlar turkiy adabiyotning yirik namoyandalari bo'lgan Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy hamda Ahmad Yassaviy adabiy-ma'rifiy me'rosi pandnoma ruhidagi adabiyotning eng muhim obidalarini sanaladi. Bular orasida Adib Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» dostoni o'ziga xos o'ringa egadir.

Turkiy didaktik adabiyotning ilk namoyandalaridan biri, "...mavoizu nasoyih"ga to'la hikmatlari bilan "xeyli elning muqtadosi" bo'lgan [53. 426] Adib Ahmad o'zining axloqiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan o'rta asr turkiy madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi. Adib Ahmad shaxsiyati hamda "Hibat ul-haqoyiq" dostoninig yaratilgan davri haqidagi bahsu-munozaralar hali nihoyasiga yetmagan bo'lsa-da, shuni komil ishonch bilan aytish mumkinki, asar yaratilgan davrdan boshlab turkiyzabon xalqlar orasida katta shuhrat qozondi, turli toifadagi kishilarning sevimli asarlaridan biriga aylandi. "Hibat ul-haqoyiq" dostoninig, ayniqsa, XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyo, Kavkazorti va Kichik Osiyo hududlarida yashovchi xalqlar orasida keng tarqalganligi, uning ta'sirida bir qator asarlar maydonga kelganligi haqida ko'plab olimlarning, o'zbek, usmonli turk va boshqa xorijiy adabiyotshunoslarning fikr-mulohaza va ma'lumotlari mavjud.

Xususan, turk olimi Muhammad Fuod Ko'pruluzodaning ma'lumot berishicha, XIV asrning birinchi yarmida hukmronlik qilgan Amir Shayx Abu Ishoqning bosh qo'mondoni Amir Oytemirga bag'ishlangan bir majmuada turli she'riy parchalar bilan bir qatorda "Hibat ul-haqoyiq"ning ba'zi qismlari ham kiritilgan. Shuningdek olimning fikricha "Qisas ul-anbiyo" tarkibida uchraydigan mutaqorib vaznidagi to'rtliklar "Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" an'anasiga tayangan holda yozilgan.⁷

E.Rustamov "Hibat ul-haqoyiq" dostonining temuriylar davridagi mavqei haqida fikr yuritib, xususan, Shohrux Mirzo va Mirzo Ulug'bek davrlarida Hirot va Samarqandda qadimgi turkiy adabiy yodgorliklarga qiziqish kuchli bo'lganligini ta'kidlaydi. Olim, jumladan, yozadi: "1444 yilda Arslon Xoja Tarxonning xohishi bilan Samarqandda Adib Ahmad Yugnakiyning mashhur dostoni "Hibat ul-haqoyiq" uyg'ur yozuvida ko'chirilgan. Doston matnining ilovasida Adib Ahmad va uning dostoniga

⁷ Xo'janova G. "Hibat ul-haqoyiq" poetikasi. fil. fanl. nomzodi avtoreferati. – Toshkent, 2001. 10-bet.

bag'ishlangan eski o'zbek tilidagi she'r berilgan. Ulardan birining muallifi Temurga xizmat qilgan va turkiy hamda forsiyda Sayfi taxallusi bilan she'rlar yozgan amir Sayfiddin Barlos bo'lsa, ikkinchisi Arslon Xoja Tarxondir".⁸

XV-XVI asrlarda turkmanlar orasida juda mashhur bo'lgan "Mu'inul muridin" axloqiy-didaktik dostoni ham "Hibat ul-haqoyiq" ta'sirida yaratilganligi e'tirof etiladi. Asarning Bursa kutubxonasidan topilgan bir nusxasini tadqiq etgan olim F.Ko'prulu uning boshdan oxir mutaqorib vaznidagi to'rtliklardan tuzilganligi hamda, to'qqiz yuz bayt (bir ming sakkiz yuz misra)dan iborat ekanligini eslatib, asar muallifi Shayx Sharifning "Hibat ul-haqoyiq"ni ko'rib, hatto unga taqlidan qalam tebratganligi haqiqatga yaqin ekanligini qayd etadi.

Shu bilan birga, F.Ko'prulu dostonning usmonli turk adabiyotiga ta'siri masalasida ham fikr yuritadi. Uning yozishicha, "Hibat ul-haqoyiq"da xalq adabiyotining ta'siri juda yorqin va kuchli bir tarzda ko'zga tashlanadi. Keyin esa bu adabiy an'ana hijriy VII asr boshlarida (XIII asr o'rtalari) usmonli turk adabiyotida davom ettirildi. Bunda "hech shubhasiz "Atebatul haqoyiq"ning ta'sirini ham qabul qilish lozimdir".

Shularni inobatga olganda, Alisher Navoiy ta'riflagani kabi "Xeyli elning muqtadosi" bo'lgan Adib Ahmadning uzoq asrlar davomida "aksar turk ulusida hikmatu nuktalari shoe'" bo'lganligi shubhasizdir.

Adib Ahmad shaxsiyati va adabiy merosini tadqiq va tahlil etish o'tgan asrning dastlabki o'n yilligida boshlandi. Istanbul dorilfununining mudarrisi Najib Osimbey tomonidan 1906 yilda «Ayo Sofiya» ibodatxonasi kutubxonasidan dostonning ilk qo'lyozma nusxasi topildi. Biroz vaqt o'tib esa, yana bir turk olimi Kirishli Rifat Bey tomonidan dostonning ikkinchi nusxasi topilgach, adabiyotshunoslik va matnshunoslikda mazkur asar va uning muallifiga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Ayniqsa mazkur ikki qo'lyozma

⁸ Rustamov, E.R. Uzbekskaya poeziya v pervoy polovine XV veka. – M.: Nauka, 1963. 35-bet.

nusxa asosida dostonning Najib Osim tomonidan 1915-1916 yillarda nashr ettirilishi ushbu asar va uning muallifiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirdi. Bu qiziqish usmonli turk adabiyotshunosligi doirasidan chetga chiqib, Evropa va sobiq ittifoq hududidagi turkiyshunoslik va sharqshunoslik markazlariga ham yoyildi. Bu boradagi ilmiy izlanishlarni quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1. “Hibat ul-haqoyiq” (“Aybat ul-haqoyiq”, “Atebat ul-haqoyiq”) dostonining boshqa qo'lyozma nusxalarini aniqlash, tanqidiy matnini yaratish va nashr ettirish.
2. Doston muallifining shaxsiyatini yoritish, uning yashagan davri, Yugnak toponimining o'рни masalasi.
3. Asarning tili va badiiy xususiyatlari, mazmun va g'oyaviy mundarijasini tahlil va tadqiq etish.
4. Adib Ahmad haqida Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida berilgan ma'limotlarning ilmiy qimmatini tadqiq etish.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha turk, o'zbek, rus va Evropa adabiyotshunosligida bir qator ishlar amalga oshirildi, qator tanqidiy nashr, monografiya, risola, ilmiy maqola va axborotlar e'lon qilindi.

Tadqiqotlar natijasida dostonning oltita qo'lyozma nusxasi aniqlangan bo'lib, shulardan uchta nisbatan to'liq nusxalar, qolganlari esa ayrim parchalardir.⁹

Dostonni ilk marotaba nashr ettirgan turk olimi Najib Osim 1925 yilda uni yangi qo'lyozmalar asosida to'ldirilgan va sharhlar bilan boyitilgan holda qayta nashr ettirdi.

Turk olimi Muhammad Fuod Ko'prulu o'zining 1926 yilda nashr ettirilgan “Turk adabiyoti tarixi” kitobida ilk marotaba shoir shaxsiyati

⁹ Doston qo'lyozmalari tavsifi ko'pgina ilmiy manbalarda mavjud bo'lganligini inobatga olib, bu haqda alohida to'xtalish lozim ko'rilmadi.

hamda dostonning turkiy xalqlar adabiyoti taraqqiyotiga qo'shgan hissasiga doir qimmatli ilmiy-tahliliy ma'lumotlarni keltirdi. "Hibat ul-haqoyiq" bilan Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni o'rtasidagi mushtarakliklar, Ahmad Yugnakiy qarashlari va an'alarining keyingi davr adabiyotida namoyon bo'lishi haqidagi olimning mulohazalari, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Najib Osimning shogirdlaridan biri professor Rashid Rahmati Arat 1951 yilda "Hibat ul-haqoyiq" dostonining fanga ma'lum bo'lgan barcha qo'lyozma nusxalarini jalb etgan holda ilk marotaba ilmiy-tanqidiy matnini yaratdi hamda lug'at va sharhlar bilan nashr ettirdi. Mazkur tadqiqot 1992 yilda qayta bosmadan chiqdi.

Usmonli turk adabiyotshunosligining yana bir vakili Banarli Nihad Samining "Resimli Turk Edebiyati Tarihi. Destanlar devrinden zamonamiza kadar" nomli asarida Adib Ahmad haqida ham yirik maqola mavjud bo'lib, unda Ahmad Yugnakiy yashagan davr, ijodkor shaxsiyati, "Hibat ul-haqoyiq" dostoni, asarning keyingi davr adabiyotiga ta'siri kabi masalalar o'rin olgan.

Banarli Nihad Sami Adib Ahmad haqida dastlabki ma'lumotlar xalq og'zaki ijodiga borib taqalishini e'tirof etib, Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asariga murojaat etadi.

Mazkur tadqiqotning muhim jihatlaridan biri shundaki, unda "Hibat ul-haqoyiq" dostonining boblarga bo'linishi masalasida e'tiborli mulohazalar bildirilgan. Dostonning kotib tomonidan o'n to'rt bob qilib ko'chirilganligi yoki tuzilganligi ta'kidlangan bo'lsa-da, bir qator olimlarning fikricha, hozirgi holatda u o'n bir bobdan iborat bo'lib qolgan. Bu holat kotiblar (xususan Abdurazzoq Baxshi) tomonidan kiritilgan o'zgarish, ya'ni ayrim bob nomlarining tushirib qoldirilishi va bir-biriga yaqin mazmunli boblarning qo'shib ketishi sifatida izohlanadi: «Mutaxassislarning fikricha, bunday tafovut kotiblar tomonidan ayrim boblarni ko'rsatuvchi

sarlavhalarning tushirib qoldirilishi oqibatida sodir bo‘lgan bo‘lishi mumkin» [17. 87]. Nihad Samining mazkur kitobida asar 14 bo‘lim (bob) deb ko‘rsatiladi hamda uning mundarijasi beriladi. Biroq, qayd etish joizki, olim tomonidan taqdim etilgan mundarija doimo ham matndan kelib chiqmagan bo‘lib, bu haqda keyingi bobda mulohaza yuritiladi.

Turk olimi Najib Osimning 1915-16 hamda 1925-yillardagi nashrlari haqida bir qator olimlar taqrizva munosabat bildirgan. Jumladan, rus olimi V.V.Radlov va T.Kavalskiy, ingliz olimi J.Deni va hokazo. Yugnak shahrining geografik joylashuvi haqida V.V.Bartold (Samarqand yaqinidagi qishloq), Y.E.Bertels (Farg‘ona viloyati) kabi olimlar munosabat bildirdi. Y.E.Bertels, shuningdek, asar tilining eski o‘zbek tiliga munosabati haqida ham o‘z qarashlarini o‘rtaga tashladi.

O‘zbekistonda yugnakiyshunoslikni Abdurauf Fitrat boshlab berdi, desak xato bo‘lmaydi. Uning 1927-yilda nashr ettirilgan “O‘zbek adabiyoti namunalari” antologiyasida “Hibat ul-haqoyiq” dostonidan ilk marotaba parchalar e‘lon qilindi. Fitratning “Maorif va o‘qitg‘uchi” jurnalida e‘lon qilingan “Aybatul haqoyiq” nomli maqolasida olim asar muallifi va boshqa shaxslarning izohlaridan foydalangan holda o‘zbek kitobxonlari uchun ilk marotaba Adib Ahmad Yugnakiy shaxsiyati va asari haqida tarixiy va nazariy ma‘lumotlarni yetkazdi. Fitrat o‘z maqolasida Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasiga murojaat etib, unga tanqidiy munosabat ham bildiradi. Uning fikricha, Adib Ahmadning Imom A‘zamdin saboq olganligi haqidagi ma‘lumotni tarixiy asosga ega bo‘lmagan “afsonaviy xabar”dir.

Asarning ayrim boblari turli yillarda nashr ettirilgan majmua-xrestomatiyalarda, xususan, Oybek va P.Shamsiyev tahriri ostida 1941-yilda nashr ettirilgan “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi” kitobining I tomida

[64. 24-31],¹⁰ 1960 yilda bosmadan chiqqan «O‘zbek adabiyoti» xrestomatiyasining 1-tomida berilgan [65].

“Hibat ul-haqoyiq” dostonining til xususiyatlari bo‘yicha bir necha yillar davomida ilmiy tadqiqot olib borgan olim Q.Mahmudov 1971 yilda dostonning to‘liq nashrini amalga oshirdi.¹¹ Biroq mazkur nashrda ayrim kamchiliklar ham mavjud bo‘lib, ulardan ba’zilari adabiyotshunos va matnshunos Q.Tohirov tomonidan 1972 yilda yozilgan taqrizda ham qayd etilgan edi.¹² Quyida mazkur taqrizning mavzuga aloqador muhim nuqtalarini keltiramiz:

Nashrga tayyorlovchi... boshdan oxir tekstning hammasini masnaviy formasida bergan va sharhlagan (sharhlash deganda biz tekst ma’nosini hozirgi o‘zbek tilida izohlab berishni nazarda tutayapmiz). Achinarlisi shundaki, 74 va 88-betlarda ikki to‘rtlik asossiz baytlarga bo‘linib, boshqa-boshqa sarlavhalar ostida berilgan.

Masalan, 74-betda:

Musulmong‘a mushfiq bo‘lub mehrubon,
Sanga sondug‘ingni musulmong‘a son

baytining davomida bo‘lgan:

Jafo qildachingg‘a yonut qil vafo,
Arimas necha yuvsa qon birla qon,-

bayti keyingi boshqa sarlavha ostiga o‘tib ketgan.

¹⁰ Kitobda negadir shoirning nisbasi Yunakiy tarzida berilgan. Qarang: O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. I tom. – Toshkent: Uzpeditnashr, 1941. 24-bet.

¹¹ Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq (nashrga tayyorlovchi va so‘z boshi muallifi Q.Mahmudov). - T.: Badiiy adabiyot, 1971.

¹² Tohirov Q. «Hibat ul-haqoyiq» dostoni nashri xususida. «Lenin yo‘li» ro‘znomasi, 1972 yil. 14-iyun.

Toʻrtliklarning masnaviy formasida baytlarga boʻlib berilishi, birinchidan, ayrim toʻrtliklarning boshqa boshqa sarlavhalar ostiga tushib ketishiga sabab boʻlsa, ikkinchidan, koʻpgina toʻrtliklar mazmunining notoʻgʻri chiqishiga olib kelgan. Jumladan, 79-betdagi toʻrtlik ikki baytga boʻlib sharhlangani uchun birinchi baytning birinchi misrasi keyingi bayt bilan bogʻlanmay, mazmunning buzilishiga sabab boʻlgan.

Agar shoir bu baytning birinchi misrasida, kishi qanchalik tadbirli va tetik boʻlmasin, biror xato qilib qoʻyishi mumkin, shuning uchun (keyingi baytda) birgina ayb bilan bosh kesiladigan boʻlsa, dunyoda tirik odamlar qolmaydi, demoqchi boʻlsa, nashrga tayyorlovchi shu birinchi misrani «koʻp tadbirli, tetik kishilarning qoʻlidan biror saxovat keladi» deb tushuntiradi.¹³ 67-betda esa «ulugʻlik mening, siz olinmang tedi» misrasi ham «u ulugʻlikni mensiz olishga urinmang dedi» deb aytgan» tarzida izohlangan. Aslida bu misrada «Ulugʻlik menga xos, siz ulugʻlik daʼvo qilmang dedi» degan maʼno ifodalangan...

Q.Mahmudovning 1972 yilda nashr ettirilgan «Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari haqida» nomli monografiyasida [25] dostonning filologik tahlili bilan birga arab yozuvidagi tanqidiy matni, uning kirill yozuvidagi transkripsiyasi hamda hozirgi oʻzbek tilidagi sharhi eʼlon qilindi.¹⁴ Mazkur tadqiqotning biz uchun eng qimmatli tomoni dostonning arab yozuvida berilgan tanqidiy matnidir. Zero, unda hijriy 884 (m. 1479) yilda Abdurazzoq Baxshi tomonidan Istambulda koʻchirilgan nusxa asos qilib olingan boʻlsa-da, dostonning boshqa nusxalari, shuningdek, Najib Osim va Arat Rahmatiy nashrlari bilan farqli oʻrinlari ham satr osti (snoska) yozuvlarida koʻrsatilgan.

¹³ Taʼkidlash joizki, mazkur xato dostonning 1972 yildagi nashrida tuzatilgan.

¹⁴ Mahmudov Q. Ahmad YUgnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari haqida. – T.: Fan, 1972. 177- 241-betlar.

1986 yilda nashr etilgan «Navoiyning nigohi tushgan» kitobida¹⁵ dostonning asosiy qismidan 187 bayt, aniqrogʻi, 92 ta toʻrtlik toʻliq va uchta toʻrtlikning yarmi kiritilgan. Bu kitobning Q.Mahmudov nashridan birgina afzalligi shundaki, unda doston baytlar shaklida emas, toʻrtlik shaklida nashr etilgan va sharhlangan.

1987 yilda nashr qilingan «Qadimiy hikmatlar» kitobida dostonning hozirgi oʻzbek tilidagi tabdili ayrim qisqartirishlar bilan Q.Mahmudov tadqiqoti asosida qayta eʼlon qilindi.¹⁶

Va nihoyat, 2003 yilda nashr etilgan «Oʻzbek mumtoz adabiyoti namunalari» majmuasida (Tuzuvchilar N.Rahmonov, H.Boltaboev) Q.Mahmudov tuzgan tanqidiy matn va tabdil yana qayta nashr ettirildi.¹⁷

Adib Ahmad hayoti va dostonning gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari asosan darslik va boshqa oʻquv adabiyotlari doirasida tadqiq va tahlil etildi. Bu borada N.Mallayevning OTM uchun yaratgan “Oʻzbek adabiyoti tarixi” darsligi (birinchi kitob) alohida ahamiyatga ega [23].

Yuqoridagilardan maʼlum boʻladiki, dostonning Oʻzbekistondagi barcha nashrlarida Q.Mahmudov tayyorlagan tanqidiy matn va sharh asos vazifasini bajardi. Bu borada biron bir jiddiy oʻzgarish, tahrir sezilmaydi.

Oʻtgan asrning 90-yillari matbuotida Ahmad yugnakiyning yashagan davriga oid qizgʻin munozaralar kechganligini ham eslatib oʻtish lizim. Taniqli adabiyotshunos f.f.d. M.Imomnazarovning “Adib Ahmad qachon yashagan?” nomli maqolasi sabab boʻlgan bu munozarada Q.Mahmudov (“Manbalarni qaytadan koʻrmoq kerak”), E.Umarov (“Tili ham qadimiy”), I.Haqqul (“Ahmad Yugnakiy Imom Aʼzamga zamondosh boʻlganmi?”), H.Boltaboyev (“Butun ehtimollarning kuchlisi...”), H.Rajabov (“Hibat ul-

¹⁵ Navoiyning nigohi tushgan. – T.: Badiiy adabiyot, 1986. 13-38-betlar.

¹⁶ Qadimiy hikmatlar. – T.: Adabiyot va sanʼat, 1987. 414-428-betlar.

¹⁷ Oʻzbek mumtoz adabiyoti namunalari. – T.: Fan, 2003. 196-223-betlar.

haqoyiq” qachon yozilgan”) kabi adabiyotshunos, tilshunos va munaqqidlar ishtirok etdi.

Biroq tilga olingan manbalar Adib Ahmad haqida umumiy tasavvur hosil qiluvchi o‘quv adabiyotlari yoxud uning yashagan davri haqidagi munozaralardan iborat edi. Ularda yugnakiyshunoslikning eng muhim muammolaridan biri, ya’ni doston matni bilan jiddiy shug‘ullanish kuzatilmaydi.

Bu masalada 2001 yilda «Hibat ul-haqoyiq» poetikasi» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan yosh olim G.Xo‘janovanning ishlarini istisno tarzida alohida qayd etish lozim. Olima Ahmad Yugnakiyning yashagan davri bilan bog‘liq masalalardan tashqari, dostonning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, poetikasiga doir jiddiy kuzatishlar olib borganligi, shuningdek, doston matni bilan bog‘liq ayrim izlanishlari tahsinga loyiq.

Mana bir misol:

«Hibat ul-haqoyiq»ning «B» va «C» nusxalarida shunday bayt bor:

Bilik bil o‘sanma bil ul haq rasul,
Bilik kimda ersa siz arqang tedi

Mazmuni: Bilimli bo‘l, hech qachon erinma, Haq rasuli (payg‘ambar) kim ilmli bo‘lsa, uni siz maqtang deb aytdi.

Asarning «A» nusxasida ushbu bayt quyidagi tarzda berilgan:

Bilik bil o‘sanma bil ul haq rasul,
Bilik Chinda ersa siz arqang tedi.

Ma’lum bo‘layotirki, mazkur baytda shoir Hazrati payg‘ambarning «Garchi Xitoyda bo‘lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat

qilish har bir mo‘minga farzdir» degan hadisidan foydalangan va uni «ilmni Chinda bo‘lsa ham izlangiz» tarzda ixchamlashtirgan» [39. 14].

2001 yilda nashr ettirilgan «Ma’naviyat yulduzlari» kitobidagi M.Imomnazarov maqolasida yuqoridagi bayt xususida shunday deyiladi: «Doston matni orasida payg‘ambarimizning «Ilm Chin elida bo‘lsa ham, o‘rganing» degan hadislari arab tilida keltirilgan va ushbu fikr turkiy to‘rtliklar shaklida sharhlangan».¹

Bu mulohazalar uchun quyidagi matn asos bo‘lgan:

Bilik birla olim yuqar yo‘qladi,
Biliksizlik erni cho‘kardi qo‘di.
Bilik bil o‘sanma bil ul haq rasul,
Bilik kimda (Chinda) ersa siz arqang tedi.

«Va zalika qavluhu alayhissalam utlubul ‘ilma valav bissin».³

Keltirilgan matn hamda ikki olimning fikr-mulohazalarini solishtirishdan quyidagilar ma’lum bo‘ladi:

1. G.Xo‘janova to‘rtlikning so‘nggi misrasidagi «kimda» so‘zi aslida «Chinda» tarzida yozilishi kerakligiga e’tibor berib, (Dostonning Istambul nashrida shu tarzda keltirilganligi Q.Mahmudov tadqiqotida ham ko‘rsatilgan) misraning mazmuni payg‘ambar (a.s.) hadislaridan olinganligini ta’kidlaydi. Biroq, shu fikrni quvvatlaydigan arab tilidagi matnga e’tibor bermaydi.

2. M.Imomnazarov arab yozuvidagi matn mazmuniga e’tibor qaratgan. Barcha nashrlarda «Ilm o‘rganish haqida alayhissalomning aytganlari»

¹ Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent: Xalq merosi, 2001. 151-bet.

³ Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari haqida. – T.: Fan, 1972. 185-bet (Dostonning kirill yozuvidagi matnida texnik xato borligi tufayli, arab yozuvidagi matndan transliteratsiya qilindi).

tarzida noto‘g‘ri tarjima qilingan bu matn «Ilm Chin elida bo‘lsa ham o‘rganing» degan hadisning aynan o‘zi ekanligini ta’kidlaydi. Biroq olimning fikricha, Ahmad Yugnakiy tomonidan payg‘ambar (a.s.) «hadislari arab tilida keltirilgan va ushbu fikr turkiy to‘rtliklar shaklida sharhlangan». Vaholonki, to‘rtlik va matnning ketma-ketligi teskari tartibda, ya’ni dostonida avval turkiy to‘rtlik, so‘ngra arab tilidagi matn keladi. Shuningdek, arabcha matn muborak hadisning aynan ko‘chirmasi emas, o‘zlashtirma gapga aylantirilgan shaklidir:

«Va zalika qavluhu alayhissalam utlubul ‘ilma valav bissin».

Mazmuni: «Bu alayhissalomning «Chinda bo‘lsa ham ilm talab qiling» deganlari (-ga ishora).¹⁸

Bundan xulosa chiqadiki, arabcha matn muallifning emas, boshqa bir shaxsning izohi, eslatmasi bo‘lishi ham mumkin.

Turk olimi Banarli Nihod Sami esa bu masalada quyidagicha fikr bildiradi: «Shoirlarga ilhom bergan hadis ilova qilingan»¹⁹ (Usmonli turk tilidan tarjima qilindi – Sh.A.).

Demak, ikkala olim (G.Xo‘janova va M.Imomnazarov) ham yuqoridagi to‘rtlikni to‘g‘ri tushunish, sharhlash masalasida e’tiborli fikr bildirganlar, biroq bu fikrlarni birlashtirgan taqdirdagina haqiqat oydinlashadi. Biroq, dostonning keyingi nashrida bu fikrlarning birontasi e’tiborga olinmasdan, to‘rtlik, arabcha matn va ularning sharhi eski holatda, jiddiy xatoliklar bilan berilgan.²⁰

¹⁸ Tohirov S. Adib Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» doston: matn, tadqiq va tahlil. - Samarqand: SamDU nashri, 2009. 6-bet.

¹⁹ Banarli Nihad Sami. Resmli Turk Edebiyati Tarihi. – Istanbul: Milli Eg’itim Basimevi, 2001. 245 – s.

²⁰ O‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari. – Toshkent: Fan 2003. 201-bet.

“Hibat ul-haqoyiq” dostonining matni va sharhlari bilan bog’liq muammolar Samarqand adabiyotshunoslik maktabining vakillaridan bo’lgan f.f.n. S.Tohirovning bir qator maqolalari, “Matn va tahlil” nomli uslubiy qo’llanmasi hamda «Hibat ul-haqoyiq» doston: matn, tadqiq va tahlil» nomli risolasida atroflicha tahlil etiladi. Olim asar tarkibidagi arabcha matnlar, ularning transliteratsiyasi va tarjimasi, ularning doston matni bilan munosabati haqida bir qator e’tiborli fikr-mulohaza va tahlillarni bildirgan. Mavjud nashrlardagi jiddiy xatolar asar mazmunini tushunishga xalaqit berishi ko’plab misollar bilan ko’rsatilgan. Fikrning isboti uchun tilga olingan so’nggi manbadan parcha keltirmoqchimiz:

“Keyingi yillarda nashr qilinayotgan o’quv adabiyotlarida doston matni va sharhlarini isloh qilishga harakat qisman ko’zga tashlanadi. Ammo bu harakat ayrim hollarda yangi e’tiroz va munozaralarga sabab bo’ladi. Bunga quyidagi misol bilan ham ishonch hosil qilish mumkin:

O’chukturna erni tilin, bil bu til,

Bashaq tursa butmas, butar o’q bashi.

1-sharh: Kishini o’chakishtirma (uning) tilini bil, bu til **yaralasa**, tuzalmaydi, **o’q jarohati** esa bitib ketadi.²¹

2-sharh: Kishini o’chakishtirma (uning) tilini bil, bu til **yaralansa**, tuzalmaydi, **yarasi** esa bitib ketadi.²²

E’tibor berilgan bo’lsa, ikala misolda ham birinchi misraning sharhi bir xil. «O’chukturna erni tilin bil» jumlasida «Kishini o’chakishtirma, tilini bil» tarzida tushunilgan. Natijada ikkinchi misra sharhida tushunmovchilik yuzaga kelmoqda:

1-sharhda: «til **yaralasa**, tuzalmaydi»;

²¹ Mahmudov Q. Ahmad YUgnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asari haqida. – Toshkent: Fan, 1972. 235-bet.

²² Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. – T.: O’qituvchi, 2004. 124-bet.

2-sharhda: «til **yaralansa**, tuzalmaydi».

1-sharhda: «**o‘q jarohati** bitib ketadi»;

2-sharhda: «**(til) yarasi** bitib ketadi».

S.Tohirovning fikriga ko‘ra “Bu har xillikning asl sababi aynan birinchi misrada. Aniqrog‘i, «tilin» so‘zida bo‘lib, uni **«tilini»** tarzida emas, **«til bilan»** tarzida tushunish lozim. Binobarin, misraning tabdili **«Kishilarni til bilan o‘chakishtirma»** bo‘lishi kerak”.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, mazkur doston tuzilishi matni va sharhlari bilan bog‘liq masalalarni qaytadan jiddiy tarzda o‘rganish ehtiyoji seziladi [34. 13].

Olim shunday haqli savolni o‘rtaga tashlaydi: “Tasavvur qiling, o‘quvchida shunday savol tug‘ildi: - Asarda «Odam Ato va Momo Havodan ibrat olish haqida», degan sarlavha mavjud. Biroq nima uchundir, bu sarlavha ostidagi to‘rtliklarda bu zotlar tilga olinmagan yoki ularga aloqador fikr, jumla yo‘q.

Bu savolning javobini biron bir darslik yoki qo‘llanmadan topib bo‘lmaydi”.

Tilga olingan tadqiqotning ahamiyatli tomonlaridan yana biri, unda “Hibat ul-haqoyiq” dostoninig matni isloh qilingan holda ilova qilingan [34. 57-95]. Biz keying boblarda doston matniga murojaat etishda shu manbaga tayanishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Xulosa qilib aytganda, turkiy adabiyotning dastlabki yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Adib Ahmad Yugnakiy shaxsiyati hamda “Hibat ul-haqoyiq” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini turli nuqtai-nazardan tadqiq va tahlil etish anchayin uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, bunda usmonli turk, o‘zbek, rus va boshqa xalqlarga mansub bo‘lgan adabiyotshunos olimlarning ilmiy izlanishlari mavjud. Mazkur

tadqiqotlarning deyarli barchasida Ahmad Yugnakiyning purma'no hikmatlari, o'ziga xos badiiyat namunalari bo'lgan to'rtliklari o'zidan keying davr adabiyotiga sezilarli ta'sir etganligi e'tirof etiladi.

Ko'plab tadqiqotlarda Alisher Navoiyning Adib Ahmad haqidagi ma'lumotlarga murojaat etiladi va turlicha munosabat bildiriladi. Bu esa buyuk mutafakkirning birgina asari tarkibida keltirilgan mu'jazzgina ma'lumot adabiyotshunoslik uchun nechog'li ahamiyat kasb etishini yaqqol namoyon etadi.

1.2. Adib Ahmad shaxsiyati va adabiy merosini o'rganishda Alisher Navoiy asarlarining o'rni.

Ma'lumki, Adib Ahmad Yugnakiy shaxsiyati uchta manba asosida yoritiladi:

1. Shoirning o'zi tomonidan keltirilgan ma'lumotlar.
2. Asar qo'lyozmasida Amir Sayfiddin (E.Rustamovning ma'lumot berishucha, Amir Temurga xizmat qilgan va turkiy hamda forsiyda Sayfi taxallusi bilan she'rlar yozgan), hamda Arslon Xoja Tarxon tilidan keltirilgan matnlar.
3. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasidagi ma'lumotlar.

"Hibat ul-haqoyiq" dostonining xotimasida bevosita muallif qalamiga mansub bo'lgan beshta to'rtlik mavjud bo'lib, ularning ayrimlari xasbi hol xususiyatiga ega. Ularda jumladan quyidagi misralar ham mavjud:

Adib Ahmad otim adab pand so'zum,

So'zum munda qolur, borur bu o'zum.

*(Otim Adib Ahmad, so'zim pand-nasihati, so'zim bu dunyoda qolib,
o'zim u dunyoga ketaman).*

Qolgan misralarda muallif asarning mohiyati haqida fikr yuritadi.

Ikkinchi manba haqida fikr yuritishdan oldin ta'kidlash joizki, uning muallifi va sarlavhada tilga olingan shaxslar haqida ixtilofli fikrlar mavjud. Jumladan yuqorida ham tilga olganimizdek, E.Rustamov bu misralarning muallifi Amir Sayfiddin va Arslon Xoja Tarxon deb hisoblaydi: “Doston matnining ilovasida Adib Ahmad va uning dostoniga bag'ishlangan eski o'zbek tilidagi she'r berilgan. Ulardan birining muallifi Temurga xizmat qilgan va turkiy hamda forsiyda Sayfi taxallusi bilan she'rlar yozgan amir Sayfiddin Barlos bo'lsa, ikkinchisi Arslon Xoja Tarxondir”.²³ Biroq dostonning tanqidiy matnini tayyorlagan Q.Maxmudov bu shaxslarning matn bilan aloqasi yo'q, deb hisoblaydi. Bunday fikr hozirga qadar o'quv adabiyotlarida takrorlanmoqda. Jumladan, R.Vohidov va H.Eshonqulov tomonidan yaratilgan “O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi” o'quv qo'llanmasida shunday deyiladi: “Aytish joizki, bu baytlarda sarlavha sifatida qo'llangan Arslonxo'ja Tarxon va Amir Sayfiddin ta'riflarining o'sha misralarga mutlaqo aloqasi yo'q. Nazarimizda, bu satrlar kotiblar qalamiga mansubdir... Mana o'sha **hasbi hol** (?) ahamiyatiga molik misralar” [17. 84].

Avvalambor ta'kidlash lozimki, bu yerda ko'zda tutilgan matnlar bir kishining qalamiga mansub, deb hisoblash, nazarimizda noo'rin. Zero Amir Sayfiddin tilidan keltirilgan matn ikkita to'rtlikdan iborat, ikkinchisi esa, besh baytlik masnaviydir.

Ikkinchidan, bu misralarni hasbi hol deb hisoblash tamoman mantiqqa ziddir. Zero ularda uchinchi shaxs haqida gapiriladi:

Tug'a ko'rmas erdi adibning ko'zi,

Tuzattim bu o'n to'rt bob ichra so'zi... [56. 95]

²³ Rustamov. E.R. Uzbekskaia poeziia v pervoy polovine XV veka. – M.: Nauka, 1963. 35-bet.

(Adibning ko'zi tug'ma ko'rmas edi. Men uning so'zlarini o'n to'rt bob qilib tuzdim).

Adiblar adibi, fozillar boshi,

Guhartin so'z aymish odin so'z boshi...

(Adiblar Adibi, fozillarning boshi, Uning gavharga teng so'zlari so'zning boshi (asosiysi, keragi)dir).

Adibning yeri oti Yugnak erur,

Safoliq ajab yer, kongullar yorur.

(Adibning (yashash) joyi Yugnakdir. Ajoyib pokiza (havoli) ko'ngillar yorishadigan joy).

Atosi oti Mahmudi Yugnaki,

Adib Ahmad o'g'li, yo' ul hech shaki. [56. 96]

(Otasining oti Mahmudi Yugnakiy. Adib Ahmad uning o'glidir, bunga hech qanday shubha yo'q).

Bu baytlarni muallif tomonidan yozilgan deb qabul qilish mantiqan noo'rindir.

Nazarimizda arab tilidan qisqa va noaniq tarjima qilingan sarlavhalarni “Amir Sayfiddin ta'rifi” tarzida emas “Amir Sayfiddinning Adib Ahmad haqidagi ta'rifi” deb tushunish lozim. Misralar til nuqtai nazaridan bitta shaxsga (kotibga) tegishli bo'lishi mumkin, biroq ularda ifodalangan mazmun va ma'lumotlar sarlavhada tilga olingan shaxslarga tegishli ekanligiga shubha bilan qarash uchun hech qanday asos yo'q.

Demak Arslonxo'ja Tarxon va Amir Sayfiddin ma'lumotlaridan Yugnaklik Mahmud o'gli Ahmadning o'ta fozil kishi bo'lganligi, ko'zi tug'ma ojiz bo'lganligi ayonlashadi.

Mazkur ma'lumotlar adabiyotshunoslikda bir qator munozara va tortishuvlarsa sabab bolganligini inobatga olib uning matnini to'liq keltirishni joiz topdik:

645. Adib Ahmad ham turk elidin ermish. Aning ishida g'arib nimalar manquldur. Derlarki, ko'zlari butov ermishki, aslo zohir ermas ermish. Basir bo'lub o'zga basirlardek andoq ermas ermishki ko'z bo'lg'ay va ko'rmas bo'lg'ay. Ammo bag'oyat ziyrak va zakiiy va zohid va muttaqiy kishi ermish. Haq s.t. agarchi zohir ko'zin yopuq yaratqandur, ammo ko'ngli ko'zin bag'oyat yoruq qilg'ondur: lo'byog'a ilik surtubdur va debdurki, qo'y bukragiga o'xshaydur va naxudni barmog'in bila silab, debdurki, itolgu boshig'a o'xshar. Maskani Bog'doddin necha yig'och, ba'zi debdurlar, to'rt yig'och yo'l erkan. Bir kun Imom A'zam q.r. darsig'a hozir bo'lur erkandur. Darsda yeri saffi ni'ol erkandur. Naqledurki, Hazrat Imomdin so'rubdurlarki, shogirdlaringiz arosida qaysidin andoqki ko'nglungiz tilar, rozisiz? Bovujudi Imom Muhammad va Abu Yusuf r. va alarning abnoyi jinsi va hamsabaqlari Imom q.s. debdurki: "Bori yaxshidurlar. Ammo ul ko'r turkki, safi ni'olda o'lturur va bir mas'alani mazbut qilib, to'rt yig'och yo'l yayog' kelib borur, andoqki kerak ul tahsil qilur". Va aning tili turk alfozi bila mavoizu nasoyihqa go'yo emish. Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusida hikmatu nuktalari shoe'dur. Nazm tariqi bila aytur ermish, aning favoididindur:

Ulug'lar ne bersa yemasman dema,

Ilik sun, og'iz ur yemasang ema.

Va ham aningdurkim:

So'ngakka yilikdur, eranga bilik,

Biliksiz eran-ul so‘ngaksiz yilik.

Al-ilmullohi taolo. [53. 426-427]

Ta’kidlash joizki, barcha manbalarda “Hibat ul-haqoyiq”dan olinganligi qayd etilgan yuqoridagi baytlar ayni shaklda dostonning tanqidiy matnlarida mavjud emas. Jumladan, birinchisi:

Ulug’lar ne bersa yemasman dema,
Ilik sun, og’iz ur, yemasang yema.

Bu bayt ulug’larga ehtirom haqida. “Ulug’” so’zining ma’nosi keng. Asl ma’nosi “katta” bo’lsada, ko’pincha, yoshi katta, qadri baland, hurmatga sazovor, mavqeyi yuksak kishilarga nisbatan ishlatiladi. Asosiy fikrga keladigan bo’lsak, gap dasturxon odobi vositasida tushuntirilmoqda. Chunonchi “ulug’lar bir narsa bersalar, yemayman dema, yemasang ham qo’l ur, yegandek bo’l.” Kengroq mazmunda tushuntiradigan bo’lsak, yoshi katta, tajribali, dunyo ko’rgan kishilarning gaplarini qil, hech bo’lmasa ular haqida o’ylab ko’r, chunki ular ma’nisiz, keraksiz gapni gapirmaydi.

Adib Ahmadga nisbatan berilgan bu bayt tanqidiy matnlarda uchramaydi.

“Nasoyim ul-muhabbat”da keltirilgan ikkinchi bayt haqida:

So’ngakka yilikdur, eranga bilik,
Biliksiz eran – ul so’ngaksiz yilik.

Bu baytni tahlil qiladigan bo’lsak, so’ngakka ya’ni suyakka ilik kerak bo’lgani kabi, er kishiga bilim kerakdir. Bilimsiz er kishi “so’ngaksiz ilik kabidir, deyilmoqda. Baytda o’xshatish san’ati qo’llanilgan bo’lib, so’ngak eranga, ilik – bilikka o’xshatilgan. Ikkinchi misrada esa, mantiqiy xatolik

mavjud bo'lib, bilik – so'ngakka, eran – ilikka o'xshatilayapti. “So'ngaksiz ilik” birikmasida ma'noviy g'alizlik mavjud. Chunki asos so'ngak, ilik esa uning ichida bo'ladi. Iliksiz so'ngakning bo'lishi mumkin, lekin suyak yo'q joyda ilik bo'lmaydi. Sababi, ilik suyakka xos. Demak, mantiqan qaraganda baytning ikkinchi misrasi “Biliksiz eran – ul yiliksiz so'ngak” tarzida bo'lishi lozim. Biroq bu holatda baytning qofiyasiga putur yetadi.

Balki Navoiy baytdagi misralarning to'g'ri qofiyalashi uchun ham “bilik” so'ziga “ilik” so'zini qofiyadosh qilgan bo'lishi mumkin. Chunki Navoiy she'rdagi qofiyaga alohida e'tibor qaratgan. Buni Navoiyning “Majolis un – nafoysis” tazkirasida Atoiy haqida gapirib, uning bayti qofiyasida “aybg'ina”si borligini qayd etganligidan ham ko'ramiz.

“Hibat ul – haqoyiq” dostonida yuqoridagi bayt aynan uchramasa-da, mazmun va shakl jihatidan unga juda yaqin bo'lgan quyidagi to'rtlik mavjud:

So'ngakka yiliktek, eranga bilik,
Eran ko'rki aql ul, so'ngakning yilik.
Biliksiz yiliksiz so'ngaktek xoli,
Yiliksiz so'ngakka sunulmas alik.²⁴

Biz yuqorida Alisher Navoiy asarida keltirilgan baytda mavjud bo'lgan so'z va jummalarni ajratib ko'rsatdik. Mazkur bayt tortlikning biro z o'zgargan shakli ekanligi yaqqol ko'rinmoqda.

To'rtlikning mazmuni: *So'ngakka ilik qanchalar kerak bo'lsa, er kishining ko'rki, qadri aqlidir. Ilmsiz “iliksiz so'ngak” kabi bo'shdir, iliksiz so'ngakka esa hyech kim qo'l uzatmaydi.*

²⁴ Ahmad Yugnakiy. Hibat ul – haqoyiq. (Nashrga tayyorlovchi Q.Mahmudov) – T: Badiiy adabiyot, 1971.

Bu to'rtlikda ham o'xshatish san'ati qo'llanilgan. So'ngak – eranga, yilik – bilikka qiyoslangan. To'rtlikdagi barcha misrada o'xshatish saqlab qolingan bo'lib, yuqorida Navoiy keltirgan “so'ngaksiz yilik”, “yiliksiz so'ngak” tarzida qo'llangan.

Bu haqda adabiyotshunos Q.Tohirov shunday fikr bildiradi: “Adib Ahmad asarlarining Alisher Navoiy foydalangan nusxasi bizga yetib kelgan emas, chunki Navoiy keltirgan baytlar (Navoiyda bayt deyilgan) nashr etilgan nusxalarda uchramaydi”.²⁵

Biz mazkur fikrga shunday qo'shimcha qilmoqchimiz.

Yuqorida tilga olganimiz, asarga ilova qilingan matnlarda quyidagi satrlar ham mavjud:

Ko'p elni ko'rarmen adib so'zini,

Bila bilmasindan ular o'zini...

(Ko'p odamlarni ko'rdim, ular adibning so'zlarini bilib-bilmay ergashadilar).

Aybqa qo'yuptur xaloyiq aro,

G'alat ma'nisini ayitmish yano. [56. 98]

((Bunday odamlar adib so'zlarining) ma'nosini buzib, odamlar orasida aybga qo'yadilar).

Bundan ma'lum bo'ladiki Ahmad Yugnakiyning hikmat-to'rtliklari XV asrda keng tarqalish barobarida, o'zgarishlarga ham uchragan. Bundan taxmin qilish mumkinki, bu hikmatlar XV asrga qadar og'zaki tarzda tarqalgan. Alisher Navoiy ham “Hibat ul-haqoyiq” dostonining qo'lyozma

²⁵ Tohirov Q. Alisher Navoiy va Adib Ahmad Yugnakiy // Alisher Navoiy merosining jahon sivilizatsiyasida tutgan ulkan mavqei (respublika ilmiy konferensiyasi materiallari). – Samarqand: SamDU nashri, 2001. 71-72-betlar.

nusxasidan emas, “aksar turk ulusida” og’zaki tarzda mashhur bo’lgan baytlardan namuna keltirgan bo’lishi ham mumkin.

Albatta bunday ikki xillikning yana bir izohi ham bo’lishi mumkin. Bu mumtoz adabiy matnlarni ko’chirish yoki nashr ettirish davomida kuzatiladigan xatolik ekanligi ham ehtimoldan xoli emas. Afsuski, ayni damda buni tekshirib ko’rish imkoniyati bizda mavjud emas.

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasi orqali biz quyidagi muhim ma’lumotlarga ega bo’lamiz:

“Derlarki, ko‘zlari butov ermishki, aslo zohir ermas ermish. Basir bo‘lub o‘zga basirlardek andoq ermas ermishki ko‘z bo‘lg‘ay va ko‘rmas bo‘lg‘ay”. “Shoirning ko‘zi butov bo‘lgan, ya‘ni boshqa ojizlardek emas, balki yumuq, qobiqlqri yopishgan holda bo‘lgan. Bundan uning ma‘lum nuqtalarni ko‘radigan bo‘lganligini ham taxmin qilish mumkin”.²⁶

Navoiy Adib Ahmadning “bag‘oyat ziyrak (sezgir) va zakiy (dono) va zohid (dunyo hoyu havaslaridan kechgan) va muttaqiy (taqvodor) kishi” bo’lganligini, “ko‘ngli ko‘zi bag‘oyat yoruq” bolganligini jonli misollar bilan tavsiflaydi. Ustozining yuksak e’tirofiga sazovor bo’lib, keyinchalik o’zi ham ustoz darajasiga yetgach “xeyli elning muqtadosi” (ergashtiruvchi) bo’lganligi ham tazkirada qayd etiladi.

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasidagi ma’lumotlar Adib Ahmad shaxsiyatiga oid bir qator masalalarni oydinlashtirish bilan birga, adabiyotshunos va tilshunos olimlarni murakkab holatga ham solib qo’ydi. Jumladan, Bog’dod shahridan to’rt yug’och (taxminan 25 km) uzoqlikda “maskan” tutganligi (Liutfiy haqida “Qabri Dehi Kanordadur, o’z maskani erdi” deb yozganini eslashimiz mumkin), Imom A’zamdandars olib,

²⁶ Tohirov Q. Alisher Navoiy va Adib Ahmad Yugnakiy // Alisher Navoiy merosining jahon sivilizatsiyasida tutgan ulkan mavqei (respublika ilmiy konferensiyasi materiallari). – Samarqand: SamDU nashri, 2001. 71-bet.

Imom Muhammad va Abu Yusuf bilan hamsaboq bo'lganligi ko'plab munozaralarga sabab bo'ldi.

Ahmad Yugnakiy shaxsiyatini aniqlashda Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasidagi ma'lumotlarning ahamiyati haqida adabiyotshunoslikda bir qator fikr-mulohazalar bildirilgan. Abdurauf Fitrat 1928-yilda nashr ettirilgan “Aybatul haqoyiq” nomli maqolasida Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasiga ham murojaat etib, Adib Ahmadning Imom A'zam (699-767 yillarda yashab o'tgan ahli sunnadagi eng katta mazhab asoschisi No'mon ibn Sobit)dan saboq olganligi haqidagi ma'lumotni “afsonaviy xabar” deya baholaydi. Uning fikricha, “Hibat ul-haqoyiq” dostonining tili va uslubi “Qutadg'u bilig”dan bir-ikki asr so'ngra yozilganini tasdiqlaydi. Uzoq yillar davomida adabiyotshunoslikda hukmron bo'lgan Fitratning mazkur fikrlari o'tgan asrning 90-yillarida qayta qizg'in munozaralar maydoniga aylandi. Bunga taniqli adabiyotshunos f.f.d. M.Imomnazarovning “Adib Ahmad qachon yashagan?” nomli maqolasi sabab bo'ldi, deb aytish mumkin. Unda Alisher Navoiy Adib Ahmad haqida “aniq ma'lumotlar”ni yetkazganligi qayd etiladi. Jumladan, uning qaerda yashagani, ustози va hamsaboqlari, yashagan davri, undagi ma'naviy-madaniy muhit, jismoniy ahvoli, hayotda tutgan mavqei va asarlarining ahamiyati, ijod yo'nalishi va h.k.²⁷ Xullas olim Navoiy ma'lumotlariga tayangan holda Adib Ahmadning VIII asrda yashaganligini qayta asoslashga harakat qiladi. Shundan keyin 1995-1998 yillar mobaynida yuqorida tilga olingan Q.Mahmudov, E.Umarov, I.Haqqulov, H.Boltaboyev, N.Rajabov va boshqalarning maqolalar nashr ettirildi.

2001-yilda “Hibat ul-haqoyiq” poetikasi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan G.Xo'janova ushbu munozaralarda bildirilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirib quyidagicha xulosa yasaydi:

²⁷ M.Imomnazarovning. Adib Ahmad qachon yashagan? // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 1995, 31-mart.

1. “Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi... Imom A’zam va Ahmad Yugnakiy munosabatlariga doir ma’lumotlar tarixiy emas, balki manoqibiy mazmunga egadir.
2. “Hibat ul-haqoyiq” Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” dostonidan keyin Firdavsiyning “Shohnoma”si vaznida – aruzning mutaqorib bahrida yozilganligi inobatga olinsa, bu bahr VIII asrlarda hali fors-tojik adabiyotida ham mavjud bo’lmaganligi o’z-o’zidan ravshanlashadi. Qolaversa, filologiya fanlari doktori H.Boltaboyev qayd etganidek, Xalil ibn Ahmad tomonidan 170-(hijriy)yillar atrofida yaratilgan mutaqorib vaznida Adib Ahmad 150-(hijriy)yilga qadar asar yozishi mumkin emas edi. Demak, “Hibat il-haqoyiq”ning vazni ham uning “Qutadg’u bilig”dan keyin yaratilganligini tasdiqlovchi mustahkam asosdir.
3. “Hibat il-haqoyiq”da tilga olingan “Amiri Dod Sipohsolor” unvoni Imom A’zam yashagan davrlarda umuman mavjud emas edi. Shu ma’noda. Abdurauf Fitratning Sayfi Isfarangi devonidan olingan misralarga tayanib aytilgan fikrlari ham buni to’la tasdiqlaydi.

Xullas, M.F.Ko’prulu, Abdurauf Fitrat, R.R.Arat, Y.E.Bertels, Q.Mahmudov, N.Mallayev, T.Takin (Bu ro’yxatga H.Boltaboyev, I.Haqqul, R.Vohidov, Q.Toirov kabi olimlarni ham qo’shish mumkin – Sh.A.) kabi o’nlab yirik olimlarning xulosalariga qo’shilamiz va “Hibat il-haqoyiq” XI-XII asrlar adabiy mahsuli deb hisoblaymiz”.²⁸

G.Xo’janovanning xulosalarida biron bir yangi fikr bo’lmasa-da, ular umumlashtiruvchilik xususiyatiga ega. Biroq bunda baribir masala o’z yechimini topmaganligini e’tirof etishga majburmiz. Zero Ahmad Yugnakiy

²⁸ Xo’janova G. “Hibat ul-haqoyiq” poetikasi. fil. fanl. nomzodi avtoreferati. – Toshkent, 2001. 9-bet. Bu olimlarning ayrimlari asrlarni XII-XIII tarzida ko’rsatishganligini eslatib o’tish oiz – Sh.A.

hikmatlari og'zaki tarzda tarqalib, keyinchalik kitobat qilingan, hatto keyinchalik vaznga solingan bo'lishi ham mumkin.

Adabiyotshunos Q.Tohirovning 2001 yilda e'lon qilingan "Alisher Navoiy va Adib Ahmad" nomli maqolasida²⁹ uzoq yillik munozaralarning mantiqiy yakuni bo'la oladigan qiziqarli fikr-mulohazalar bildirilgan. Olim jumladan yozadi:

Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asaridan bu borada quyidagi xulosalarga kelish mumkin"

- Adib Ahmad Yugnakiyning vatani aytilib kelinayotgani singari Samarqand, Farg'ona yoki boshqa joylar emas, balki Bog'dod yaqinidagi qishloqlardan biri bo'lgan.
- U Bog'dod madrasasida Imom Muhammad G'azzoliy, Imom Yusuf Hamadoniyy va ularning zamondosh-tengdoshlari bo'lgan ulug' olimlar bilan birga hamsabaq bo'lgan.
- Alisher Navoiy ma'lumotiga ko'ra Imom Muhammad G'azzoliy 1112-yilda, Imom Yusuf Hamadoniyy 1140 yilda vafot etganlar. Demak, ularga zamondosh bo'lgan Adib Ahmad ham shu davrda, ya'ni XI asr oxiri XII asr boshlarida yashab ijod etgan.
- Alisher Navoiy yozgan Imom A'zam VIII asrda yashagan kufalik No''mon ibn Sobit emas, balki XI asrda yashagan Shayx Abu Ali Formadiydir. G'azzoliy va Yusuf Hamadoniylarning tasavvufda Abu Ali Formadiy maktabiga mansub ekanliklarini Alisher Navoiy alohida ta'kidlagan.³⁰

Ahmad Yugnakiyning yashagan yoxud "Hibat ul-haqoyiq"ning yozilgan davri haqida bildirilgan fikrlarga qo'shimcha qilish juda mushkul.

²⁹ Tohirov Q. Alisher Navoiy va Adib Ahmad // Alisher Navoiy merosining jahon sivilizatsiyasida tutgan ulkan mavqei (respublika ilmiy konferensiyasi materiallari). – Sam.: SamDU nashri, 2001. 71-72-betlar.

³⁰ Shu yerda..

Shunga qaramay, doston matnidagi bitta to'rtlik asosida qo'shimcha qilmoqchimiz:

Amal qo'ydi olim va zahid vara',
 Arif raqs chiqardi ayur xush sama'.
 Bida'tin yiqikli kishi qalmadi,
 Anin kunda arta turur bu bida'.

(Olim amalini, zohid toat-ibodatini tark etdi, orif raqsga tushish odatini chiqardi, yoqimli ashula aytmoqda. G'ayri shar'iy ishlardan tiyib turuvchi kishilar qolmadi, shuning uchun, bu bid'at (yangi noshar'iy odat)lar kundan-kunga ortib bormoqda).

Bu to'rtlikda tasavvuf tariqatlarida endi paydo bola boshlagan samo' va raqs (Mavlaviya tariqatida yuksak darajaga yetgan qoshiq va harakatlar vositasida zikr tushush) nazarda tutilmoqda. Bu tushunchalar VIII asrda hali mavjud emas edi. Bu ham asarning XI-XII asrda yaratilganligini isbotlaydi.

Magistrlik dissertatsiyasining dastlabki bobida o'rganilgan masalalar bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi.

Turkiy adabiyotning eng qadimgi ijod namunalaridan boshlab inson xulqi va ma'naviyatiga oid qarashlar turli shakllarda o'z ifodasini topgan. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otitturk" asari tarkibida keltirilgan ko'plab adabiy parchalarda pand-nasihat mazmuni ifodalanganligi, ularning aksariyati Islomdan oldingi davrlarning ijodiy mahsuli ekanligi bir qator olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Biroq tom ma'nodagi didaktik adabiyotning shakllanishi bu tilda so'zlovchi xalqlar orasida islom madaniyatining yoyilishi bilan bog'liqdir. Qur'on oyatlari hamda Payg'ambar (a.s.) hadislarining mazmun-mohiyatini sharhlash, keng jamoatchilikka yetkazish, tafakkuriga singdirish, shu yo'l bilan mukammal axloq egasini

tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida pandnoma ruhidagi adabiyot X-XI asrlarda madaniyat tarixining o'ziga xos hodisasi sifatida shakllandi va rivojlandi.

Turkiy didaktik adabiyotning ilk namoyandalaridan biri, "...mavoizu nasoyih"ga to'la hikmatlari bilan "xeyli elning muqtadosi" bo'lgan Adib Ahmad o'zining axloqiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan o'rta asr turkiy madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi. "Hibat ul-haqoyiq" asari yaratilgan davrdan boshlab turkiyzabon xalqlar orasida katta shuhrat qozondi, turli toifadagi kishilarning sevimli asarlaridan biriga aylandi. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyo, Kavkazorti va Kichik Osiyo hududlarida yashovchi xalqlar orasida keng tarqalganligi, uning ta'sirida bir qator asarlar maydonga kelganligi buning yordin dalilidir.

Adib Ahmad Yugnakiy shaxsiyati hamda "Hibat ul-haqoyiq" dostonining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini turli nuqtai-nazardan tadqiq va tahlil etish anchayin uzoq tarixiy jarayon bo'lib, bunda usmonli turk (Najib Osim, Muhammad Fuod Ko'prulu, Banarli Nihad Sami), o'zbek (Abdurauf Fitrat, S.Muttalibov, E.Rustamov, Q.Mahmudov, N.Mallayev, M.Imomnazarov, Q.Tohirov, G.Xo'janova, S.Tohirov va boshqalar), rus (V.Radlov, V.Bartold, T.Kavalskiy, Y.E.Bertels) va boshqa xalqlarga mansub bo'lgan adabiyotshunos olimlarning ilmiy izlanishlari mavjud.

Yuqotida tilga olingan tadqiqotlarning aksariyatida Alisher Navoiyning Adib Ahmad haqidagi ma'lumotlarga murojaat etiladi va turlicha munosabat bildiriladi. Bu esa buyuk mutafakkirning birgina asari tarkibida keltirilgan mu'jaz ma'lumot adabiyotshunoslik uchun nechog'li ahamiyat kasb etishini yaqqol namoyon etadi.

Ahmad Yugnakiyning hikmat-to'rtliklari XV asrda keng tarqalish barobarida, o'zgarishlarga ham uchragan. Bundan shoir hikmatlarining XV asrga qadar ko'proq og'zaki tarzda tarqalganligini taxmin qilish mumkin.

Alisher Navoiy ham, bizningcha, “Hibat ul-haqoyiq” dostonining qo’lyozma nusxasidan emas, “aksar turk ulusida” og’zaki tarzda mashhur bo’lgan baytlardan namuna keltirgan.

Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasidagi ma’lumotlar Adib Ahmad shaxsiyatiga oid bir qator masalalarni oydinlashtirish bilan birga, adabiyotshunos va tilshunos olimlarni murakkab holatga ham solib qo’ydi. Bu ma’lumotlar XX asrning 90-yillarida qizg’in bahs-u munozaralar predmetiga aylandi. Ushbu munozaralarga G.Xo’janovanning nomzodlik dissertatsiyasida hamda Q.Tohirovning ilmiy maqolalarida mantiqiy yakun yasaldi, deb aytish mumkin.

2-BOB:

“HIBAT UL-HAQOYIQ” VA HAYRAT UL-ABROR” DOSTONLARINING QIYOSIY TAHLILI

2.1. “Hibat ul-haqoyiq” va Hayrat ul-abror” dostonlari kompozitsiyasida mushtaraklik va xususiylik.

Oldingi bobda ko'rib o'tganimizdek, ilk uyg'onish davri turkiy adabiyotning mo'ʻtabar manbalaridan bo'lgan Adib Ahmad Yugnakiy o'zoning axloqiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan o'rta asr turkiy madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi. “Hibat ul-haqoyiq asari yaratilgan davrdan boshlab turkiyzabon xalqlar orasida katta shuhrat qozondi, E'tiborlisi shundaki, mavjud manbalar asarning turli ijtimoiy tabaqa vakillari, turli toifadagi kishilar tomonidan o'qilgan, ko'chirilgan va ko'chirtirilgan. Ayniqsa asarning XV asrda Movarounnahr (Samarqand) va Xuroson adabiy muhitida muayyan ta'sir doirasiga ega bo'lgan. Temuriylar davrida asarning uyg'ur va arab yozuvlarida bir necha marta ko'chirtirilganligi buning yordim dalilidir. Binobarin, Adib Ahmad adabiy merosini mazkur adabiy muhitning turkiyzabon namoyandalari ijodi bilan qiyosan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Arslon Xoja Tarxon topshirig'i bilan Samarqandda ko'chirtirilgan paytda (hijriy 844, melodiylar 1440 yil) Samarqand adabiy muhitining bayroqdori bo'lgan, Arslon Xoja Tarxonga qasidalar bitgan soir Sakkokiy yoxud Movarounnahr va Turkistondagi eng mashhur tasavvuf silsilalaridan biri – Ota (yoki Ato)lar avlodidan bo'lgan Atoyil asarlarida Adib Ahmad qarashlarining muayyan ta'siri bo'lgan, deb aytish uchun asoslar bor.

Shu nuqtai nazardan turkiy va fors-tojik she'riyatining eng muhim yutuqlarini o'z ijodida jamlagan, boyitgan va shu yo'l bilan ham turkiy ham fors-tojik adabiyoti uchun namuna bo'larlik favqulodda yuksak darajadagi bebaho durdona asarlarni maydonga keltirgan Alisher Navoiy adabiy merosi

Adib Ahmaq hikmatlari bilan qiyosan o'rganish uchun dastlabki manba sifatida tanlandi. Zero Alisher Navoiy ijodida XV asrga qadar yaratilgan hamda insoniyat tarixida muayyan iz qoldirgan deyarli barcha buyuk asarlarning u yoki bu darajadagi ta'sirini ko'rish mumkin.

Alisher Navoiy axloqiy-didaktik adabiyotning rivojiga ham ulkan hissa qo'shdi. Bu borada, ayniqsa uning "Hayrat ul-abror" va "Mahbub ul-qulub" asarlari yuksak ahamiyat kasb etadi. Ushbu magistrlik ishining ikkinchi bobida "Hayrat ul-abror" (Alisher Navoiy) bilan "Hibat ul-haqoyiq" (Ahmad Yugnakiy) dostonlarining kompozitsiyasi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini qiyosan tadqiq etishga harakat qilamiz. Dastlab dostonlarning tuzilishi, umuiy kompozitsion belgilaridagi mushtarak va xususiy jihatlar haqida fikr yuritmoqchimiz.

"Hibat ul haqoyiq" dostoni aruzning mutaqoribi musammani mahzuf (fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'ul) vaznida yozilgan bo'lib, uning tanqidiy matni 512 misra (256 bayt)dan iborat. Shundan 484 misrasi (242 bayt) Ahmad Yugnakiy qalamiga mansub. Qolgan 28 misra (14 bayt) boshqa shaxslar (Amir Sayfiddin, Arslonxo'ja Tarxon va kotib Zaynulobiddin)ning Adib Ahmad va uning dostoni haqidagi ma'lumotlaridir. Asarning muqaddima qismi qasida (40 bayt) , asosiy qism va xotima to'rtlik (101 ta) she'riy shaklidir. Dostonning nomlanishi muallif tilidan emas, kotib tilidan keltiriladi:

Kitobining oti erur "Hibatul,
Haqoyiq", iborat arabtin o'shul.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni buyuk "Xamsa"ning dastlabki qismi bo'lib an'anaga ko'ra aruzning sare bahri, aniqrog'i, sare'i

musaddasi matvii makshuf yoki mavquf bahrida (muftailun, muftailun foilun yoki foilun) yozilgan. U quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Bismillahir rohmanir rohim,
 Rishtag'a chek/ti necha dur/ri yatim.
 – v v – / – v v – / – v –
 Muftailun / muftailun / foilun/

63 bob 3988 baytdan iborat bo'lgan asar, tabiiyki, Navoiyninig barcha dostonlari kabi boshdan oxir masnaviy (ikkilik) she'riy shaklida yozilgan. Uning tuzilishini muxtasar tarzda quyidagicha tavsiflash mumkin: Asar kompozitsiyasi uch qismga ajratiladi.

Dastlabki 21 bobi muqaddima bo'lib, 1048 baytni o'z icjiga oladi.

Dostonning ikkinchi – asosiy qismi 40 bob (22-61) bo'lib, unda yigirma maqolot va yigirma hikoyot-tamsil o'rin olgan. Asosiy qism 2940 baytdan iborat.

Uchnchi qism esa xotima (62) va yakunlovchi hikoyat (63) bo'lib 177 baytni o'z ichiga oladi.

Dostonning nomlanishi muallif tilidan quyidagicha keltirilgan:

Hayrati abror ko'rib zotini,
 “Hayrat ul-abror” dedim otini

Guvoh bo'lganimizdek, dostonlarning asosiy kompizitsion belgilari orasida mushtaraklik juda oz. Bu tabiiy, albatta. Zero Alisher Navoiy dostoni turkiy dostonnavislik an'anasining davomi emas, birinchi navbatta Nizomiy Ganjaviy asos slogan xamsanavislik an'anasining davomi sifatida maydonga kelgan.

Dostonlarning asosiy qismlari tavsifida esa biz ayrim mushtarakliklarni ilg'ay boshlaymiz.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, Ahmad Yugnakiyning Hibat ul-haqoyiq" dostoni ko'plab olimlar tomonidan, tilshunoslik, sharqshunoslik va adabiyotshunoslik mezonlari asosida tadqiq etilgan. Yuksak axloqiy qadriyatlarning badiiy ifodasi bo'lgan bu «mavoiz va nasoyih» (Navoiy) durdonalari barkamol inson tarbiyasida benazir ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan bo'lsa kerak, turli ta'lim dasturlarida mazkur dostonni o'qish va o'qitish masalasiga ham katta e'tibor qaratiladi. Biroq, shunga qaramay ushbu doston bilan bog'liq bir qator masalalar hanuzgacha munozarali bo'lib qolmoqda. Shulardan biri asar kompozitsiyasi, boblarga bo'linishi masalasidir.

«Hibat ul-haqoyiq» dostoni tahlil etilgan barcha manbalar, o'quv adabiyotlarida undagi boblar miqdori bilan bog'liq muammo tilga olinadi:

Tug'a ko'rmas erdi adibning ko'zi,

Tuzattim bu **o'n to'rt** bob ichra so'zi [25. 243].

Dostonning kotib tomonidan o'n to'rt bob qilib ko'chirilganligi yoki tuzilganligi ta'kidlangan. Biroq, qator olimlar, xususan, N.Mallaev [23. 116], Q.Mahmudov [25. 11], R.Vohidov va H.Eshonqulovning fikrlariga ko'ra hozirgi holatda u o'n bir bobdan iborat bo'lib qolgan. Bu holat kotiblar (xususan Abdurazzoq Baxshi) tomonidan kiritilgan o'zgarish, ya'ni ayrim bob nomlarining tushirib qoldirilishi va bir-biriga yaqin mazmunli boblarning qo'shib ketishi sifatida izohlanadi: «Mutaxassislarning fikricha, bunday tafovut kotiblar tomonidan ayrim boblarni ko'rsatuvchi sarlavhalarning tushirib qoldirilishi oqibatida sodir bo'lgan bo'lishi mumkin»

[17. 87]. Tilga olingan manbalarda asarning aniq mundarijasi berilmagan bo'lsa-da, uni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1-4-boblar muqaddima (hamd, na't, madhiya va asarning yozilish sababi);

5-10-boblar asosiy qism;

11-bob xotima.

M.Imomnazarov dostonning 14 bobdan iborat ekanligini e'tirof etadi [24. 151]. «O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari» majmuasida asar 16 bobdan iborat deyiladi: «Pand-nasihat ruhidagi doston nomi bilan adabiyot tarixiga kirgan ushbu asar XVI bobdan iborat» [63. 195]. Biroq ikkala o'rinda ham fikr izohlanmagan.

Asarning o'zini mutolaa qilgan oddiy kitobxon uning necha bobdan tashkil topganligini aniqlashi mushkul. Zero dostonning nashrlarida sarlavha o'rnida keltirilgan o'ttizdan ortiq matn bor.

Ushbu masalani atroflicha tahlil etgan adabiyotshunos S.Tohirov o'quvchi oldiga shunday savollarni qo'yadi:

1. Dostonni boblarga ajratishning aniq mezonlari bormi?
2. Bizga qadar etib kelgan hozirgi holatida doston necha bobdan iborat?
3. Agar boblar soni qisqargan bo'lsa, bu holat qay tarzda yuzaga keldi?
4. Sarlavhalar tushirib qoldirilgan, boblar birlashtirilgan bo'lsa, to'rtliklarning mavzu va mazmunidan kelib chiqib, uni qayta tiklash mumkinmi? [34. 25].

“Hibat ul-haqoyiq” dostonidagi bevosita muallif qalamiga mansub bo'lgan 484 misraning dastlabki 80 misrasi (40 bayt) muqaddima bo'lib, qofiyalanish tartibiga ko'ra 20, 14 va 6 baytlik uchta qasidadan tashkil topgan. Birinchi qasida:

Ilahiy o'kush hamd ayurman senga,

Sening rahmatingdin umarman o‘nga,

- bayti bilan boshlanib;

Menga bo‘lsa fazling qutuldi o‘zum,

Agar bo‘lsa adling, qatig‘lig‘ menga,

- bayti bilan yakun topadi.

Dod Spohsolorbek madh etilgan ikkinchi qasidaning matla‘i va maqtasi quyidagicha:

Aya til turat madh o‘tungil qani,

Man artut qilayin shahimg‘a ani...

...Tengizdin karimraq shahim ming qata,

Qabul qilsa tong yo‘q bu az hadyani.

Asarning yozilish sababi berilgan uchinchi qasidaning boshlanishi va oxiri quyidagicha:

Dodispahsolorbek uchun bu kitob,

Chiqardim achunda ati qalsu teb...

...Belak ettim oni shahimg‘a men-o‘q,

Havadarlig‘imni tugal bilsu teb.

Ilmiy manbalarda dostonidagi birinchi qasida ikki bobga ajratilgan. Ya‘ni, «Ulug‘ tangrining vasfi 1-10 baytlarda o‘z ifodasini topgan. 11-20 baytlar esa so‘nggi payg‘ambar Muhammad (a.s.) va uning to‘rt xalifasiga bag‘ishlanadi» [17. 87].

Biroq Banarli Nihod Samining tilga olingan tadqiqotida mazkur qasida uch qismga ajratilgan: “Ayni kafiye ile so’lenmish bu manzumelerin matla’ beyti birinchidedir. Bu sebeple bu manzumeleri uch ayri bahse bo’lunmush tek bir manzume diye karshilamak daha dogrudur” [11. 242].

(Bir xil qofiyaga ega bo’lgan bu manzumalarning matla’ bayti birinchisidadir. Shu sababli bu manzumalarni uchta alohida mavzuga (bobga – Sh.A.) bo’lingan bitta manzuma sifatida qabul qilish to’g’ri bo’ladi).

Shunday fikrni S.Tohirovning risolasida ham uchratamiz: “Dostonning o’zida payg’ambar na’ti va to’rt xalifa madhi uchun alohida sarlavhalar qo’yilgan:

1. Fi na’til nabiyy alayhissalom [25. 218].
2. Fi madhis sahabatil arba’ati rizvanullahi alayhim ajmain [25. 219; 34. 26].

Shu o’rinda Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig» dostonida ham boblar tartibi aynan shunday ekanligini eslatib o’tmoqchimiz:

1. Fi fazayili-n-nabi ‘alayhissalam [61. 68].
2. Fi fazayili ashabin-nabi rizvanullahi alayhim [61. 70].

Binobarin so’nggi Ikki olimning fikrlari haqiqatga yaqin bo’lib, unga ko’ra dostonning muqaddimasidagi birinchi qasida uchta alohida bob, muqaddimaning o’zi esa beshta bobga bo’linadi:

1. Bismillohir rahmonir rahim
(parvardigor hamdi, 1-10-baytlar).
2. Fi na’til nabiyy alayhissalom
(payg’ambar na’ti, 11-15-baytlar).
3. Fi madhis sahabatil arba’ati rizvanullahi alayhim ajmain
(to’rt xalifa madhi, 16-20-baytlar).
4. Fi madhin amiril ajalin Dad Sipahsalar Bek alayhirrahmati val
g’ufranu (hukmdor madhi, 21-34-baytlar).

5. Mujibi ta'lifi hazal kitabi va muqtazi

(kitobning yozilish sababi, 35-40-baytlar) [34. 27].

Dostonning asosiy qismi odatda baytlar shaklida nashr ettirilgan bo'lsa-da, qofiyalanishiga ko'ra 96 ta to'rtlikdan iborat bo'lib, 192 bayt yoki 384 misrani tashkil etadi. Asosiy qismning boblarga bo'linishi haqida ham ixtiloflar mavjud. O'quv adabiyotlarida asosiy qism olti bobga bo'lingan.

Nihod Samining darslik kitobida dostonning asosiy qismi sakkiz bobga ajratilgan:

1. Ilmning manfaati va jaholat zarari haqida, 12 ta to'rtlikdan iborat.³¹
2. Tilni asrash, odob va yaxshi odatlarga intilish haqida, 12 ta to'rtlik.
3. Dunyoning egriligi va holatlarning o'zgarishi haqida, 12 ta to'rtlik.
4. Saxovatning foydalari va baxillikning zarari haqida, 10 ta to'rtlik..
5. Tavoze' va kibr haqida, 7 ta to'rtlik.
6. Harislik haqida, 6 ta to'rtlik.
7. Karam, hilm va boshqa fazilatlar haqida, 16 ta to'rtlik.
8. Zamonaning buzuqliklari haqida, 21 ta to'rtlik.

Ushbu tasnifdan ma'lum bo'ladiki, Olim doston matnida bitta sarlavha ostida berilgan bob, ya'ni "Tavozeli bo'lishga da'vat, takabburlik va hirsning zarari, ofat keltirishi" haqidagi bobni ikki qismga bo'lgan. Bunda olim 54-to'rtlikning yangi murojaat mazmunida boshlanishiga tayanganga o'xshaydi:

Yima pandim olg'il uzatma amal,

Amal asrasinda pusuqli ajal.

Amal temishim do'st uzun sonmoq ul,

³¹ Olim boblarni raqamlar bilan emas harflar bilan nomlagan. Bir xillikni saqlash maqsadida ular raqamlar bilan keltirildi.

Uzun sonma soqish, o'kush qil amal.

(Yana bir pandimni olgin, amalni uzaytirma (uzoqni o'ylama). Chunki bu uzun amal zimnida ajal yashiringan. Amal deganim, ey do'st, uzun o'ylamoqdir. Sen uzun o'ylama, ko'proq (yaxshi) amallarni qil) [34. 81].

Nihad Semining tasnifida sarlavhalarga emas, to'rtliklarning mazmuniga (shunda ham shartli ravishda) e'tibor berilgan. Biroq bu holda asarning 5-8 boblari tarkibidagi to'rtliklarni qayta joylashtirish lozim bo'ladi. Zero kibrning yoxud dunyo moliga hirs qo'yishning zararli oqibatlari haqidagi to'rtliklar soni ko'proq bo'lib, ular so'nggi bob tarkibida ham mavjud.

Bu borada S.Tohirovning risolasida qiziqarli fikr o'rtaqa tashlanadi. Uning tasnifi bo'yicha 1-4 boblar odatdagidek. Qolganlari:

5. Beshinchi bob. Tavozei bo'lishga da'vat (amr), takabburlik va hirsning zarari, ofat keltirishi haqida. 133-160-baytlar, 14 ta to'rtlik.

6. Oltinchi bob. Axloqni mukarram qilishga da'vat va harislikning halokat keltirishi haqida. 161-178-baytlar 9 ta to'rtlik.

7. Oxirgi bob. Turli ma'no (mazmun)dagi baytlar.
179-232-baytlar, 27 ta to'rtlik.

Demak tadqiqotchi matnda keltirilgan sarlavhalarga tayangan. Tilga olingan risolada shunday mulohazalarni ham o'qiymiz:

«Hibat ul-haqoyiq» dostonidagi boblar tarkibi, hajmiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1-3 boblar 12 ta to'rtlik, 4-bob 10 ta, 5-bob 14 ta, 6-bob 9 ta hamda 7-bob 27 ta to'rtlikdan iborat. Dastlabki boblarda to'rtliklar miqdori bilan bog'liq muayyan qonuniyat bordek tuyuladi, ya'ni har biri o'n ikkita to'rtlikdan iborat. Agar dostonning dastlabki nusxalarida barcha boblar shu tartibda bo'lgan deb taxmin qilsak, unda uning asosiy qismi har biri 12 ta

toʻrtlikdan iborat sakkizta bobga ajratilishi lozim, zero, toʻrtliklarning umumiy soni 96 ta.

Oʻzbek va fors-tojik adabiyoti tarixida oʻn ikki va sakkiz sonlari bilan aloqador muayyan adabiy anʼanalar mavjud. Xususan, didaktik mazmundagi asarlarni sakkiz bob, ravza yoki faslga ajratish hodisasini Shayx Saʼdiyning «Guliston» (shuningdek, uning badiiy tarjimasi boʻlgan Sayfi Saroyining «Guliston bit-turkiy»), Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston» kabi mashhur asarlarda koʻrishimiz mumkin. Bu anʼana sakkiz jannat yoki jannatning sakkiz ravzasi haqidagi diniy tasavvurlar bilan bogʻliq. Ahmad Yugnakiy ham mazkur anʼanaga tayanib oʻz dostonining asosiy qismini sakkiz bobga ajratgan, deb aytish mumkin. Dostonning bir necha marotaba qayta koʻchirilishi natijasida unda 4-8 boblardagi ayrim toʻrtliklarning oʻrni almashgan, hamda 7-8 boblar keyinchalik qoʻshilib ketgan boʻlishi mumkin. Albatta, bu masalaga doir yakuniy xulosa toʻrtliklarning mavzusi va mazmunini sinchkovlik bilan oʻrganish va tasnif qilish asosidagina chiqarilishi mumkin» [34. 29].

Bu fikrlar tasdiqlaydigan birgina fakti keltirmoqchimiz. Quyidagi toʻrtlik tavoze haqidagi beshinchi asosiy bobda berilgan:

Qamugʻ qazgʻaniqli achun molini,
Yeyumadi bordi koʻrung holini.
Tishisi qolib bir adin er bila,
Ul anda yotibon berur sonini.

(Dunyo molini tamoman toʻplagan kishi uni yeya olmay oʻlib ketdi, uning holini koʻring. Xotini (bu dunyoda) bir yot erkak bilan qolib, ayshu ishratda, oʻzi esa (goʻrda) yotib tanasi qur-qumursqalarga em boʻlmoqda) [34. 79].

Mazmuniga ko'ra esa to'rtlik, ko'proq saxovat haqidagi to'rtinchi bobga to'g'ri keladi.

Biz olimning taxminini ma'qullagan holda "Hibat ul-haqoyiq"ning asosiy bobi har biri o'n ikkita to'rtlikni o'z ichiga oladigan sakkizta mavzi (bilim va jaholat, tilni tiyish, dunyoning o'zgaruvchanligi, saxovat va baxillik, tavoze, harislik, mukarram axloq, turli masalalar)ga ajratilgan deb hisoblaymiz.

"Hibat ul haqoyiq"ning xotimasi 5 ta to'rtlik (20 misra)dan iborat.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni "Xamsa"ning tarkibiy qismi sifatida hamda alohida asar sifatida bir qator o'zbek, rus hamda boshqa xorijiy navoiyshunos, sharqshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. S.Ayniy, A.Fitrat, Y.E.Bertels, P.Shamsiyev, A.Hayitmetov, B.Valixo'jaev, T.Jalolov, A.Qayumov, M.Muhiddinov, A.Erkinov, D.Salohiy, A.Xidrnazarov kabi olimlarning bu boradagi xizmatlari katta.

Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosini ilk marotaba monografik planda tadqiq etgan rus olimi E.E.Bertelsning "Navoiy" monografiyasida "Xamsa", shu jumladan "Hayrat ul-abror" dostonining tavsifi berilgan. Olim Navoiyning ayrim ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlarini sharhlar ekan, ularni boshqa manbalar bilan ham solishtiradi.

Akad. A.P.Qayumovning 1976 yilda nashr ettirilgan «Hayrat ul-abror» talqini» monografiyalarida [42] ham doston atroflicha tahlil qilinadi.

Professor M.Muhiddinovning "Xamsa"larning birinchi dostonlarida Komil inson konsepsiyasi" mavzuidagi doktorlik dissertatsiyalari bu borada alohida ahamiyatga molik bo'lib, unda Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy qalamiga mansub dostonlar "Komil Inson" konsepsiyasi nuqtai nazaridan ilk bora qiyosiy planda tadqiq etiladi.

Navoiyshunos olimlardan S.Xidrnazarov ham o'zining "Hayrat ul-abror" dostonining qiyosiy arxitektonikasi" mavzusidagi nomzodlik

dissertatsiyasida Navoiyning ushbu dostonini salaflarning asarlari bilan chog'ishtirma o'rganib, jumladan asarlar kompozitsiyasi haqida ham e'tiborli fikrlarni bildiradi.

"Hayrat ul-abror" (Yaxshilarning hayratlanishi) Alisher Navoiy "Xamsa"sining birinchi dostoni bo'lib, butun bir "Xamsa" turkumning fikriy-nazariy dasturi sifatida badiiy timsol sarguzashti qurilmasiga emas, balki fikriy-nazariy masalalarning bayoni-maqolot hamda ularni tasdiqlaydigan kichik hikoya va masallardan tashkil topgan qurilmaga asoslangan. «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida Navoiy o'zining turkiy va forsiy merosini tilga olib, «Xamsa»ning har bir dostonini yozishda unga madad bergan manbalarni e'tirof etadi: «Avvalkim, «Hayrat ul-abror» bog'ida tab'im gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi «Maxzan ul-asror»idin boshimg'a durlar sochibdur». Bundan ma'lum bo'ladiki dostonning yozilishida Nizomiy asari asosiy manba vazifasini bajargan.

63 bobdan iborat bo'lgan asar kompozitsiyasi yuqorida qayd etganimizdek, uch qismga ajraladi.

"Hayrat ul-abror"ning muqaddima boblari diniy-ilohiy masalalar (hamd, munojot, na't va me'roj) va dunyoviy mavzular (Nizomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, so'z ta'rifi, Sulton Husayn Boyqaro haqida, ko'ngul ta'rifi, uch hayrat va Bahovaddin Naqshband haqida)ga bag'ishlangan.

"Hayrat ul-abror"ning asosini yigirma maqolot hamda yigirmata hikoyot va tamsillar tashkil etadi.

"Hayrat ul-abror" dostonidagi maqolotlar mundarijasini nazardan o'tkazadigan bo'lsak, ular Adib Ahmadning dostonidagi mundarijadan ancha keng va murakkab. Adib Ahmadning dostoni boshdan oxir Islom ma'naviyati bilan sug'orilgan bo'lsa-da, uning asosiy ruknlari alohida tavsiflanmaydi. Zero bu davrda shu mavzuda yaratilgan ko'plab fiqhiy asarlar mavjud edi.

Adib hadislarida eng ko'p tilga olinadigan axloqiy qadriyatlar tavsifiga e'tibor qaratgan. "Hibat ul-haqoyiq" dostonida tahlil etilgan mavzularning deyarli barchasi "Hayrat ul-abror"da ham muhokama etiladi. Jumladan, Bilim va jaholat masalasi "Ilm" haqidagi 11 - maqolada, Tilni tiyish va to'g'ri so'zlilik masalasi "Rostlik" haqidagi 10-maqolatda, saxovat va baxillik masalasi "Karam" haqidagi 5-maqolatda, dunyoning o'zgaruvchanligi, egriligi masalasi "Aflok hay'ati" haqidagi 14-maqolatda muhokama etiladi. "Hibat ul-haqoyiq"ning so'nggi boblarida keskin tanqid ostiga olingan haris (dunyoga hirs qo'ygan)lar, kibrga berilganlar, mayparastlar "Haytar ul-abror"da ham ba'zan alohida maqolat tarzida, ba'zan esa boshqa mavzuga aloqador tarzda fosh etiladi.

Navoiyning barcha dostonlarida bo'lgani kabi "Hayrat ul-abror"da ham nasriy sarlavhalar kompozitsiyaning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Adabiyotshunos S.Xidirnazarov tilga olingan tadqiqotida "Maxzan ul-asror" (Nizomiy Ganjaviy), "Matla' ul-anvor" (Xusrav Dehlaviy), "Tuhfat ul-ahror" (Jomiy) va "Hayrat ul-abror" (Navoiy) dostonlarining ayrim sarlavhalarini qiyoslagan holda. Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy asarlaridagi sarlavhalarga nisbatan Abdurahmon Jomiyning dostonida sarlavhalar mukammallashganligini asosli tarzda qayd etadi: "Abdurahmon Jomiyning "Tuhfat ul-Ahror" dostonida bu sarlavhalar ancha mukammallashgan" [38. 10 (Rus tilidan tarjima qilindi)].

Biroq bu masalada Alisher Navoiyning ijodiy mahorati benazir ekanligini, uning sarlavhalari mazmundorligi va badiiyligi bilan yaqqol ajralib turishini tadqiqotchi alohida qayd etadi: "Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida bu sarlavhalar annotatsiya xarakteriga ega bo'lib, bobning qisqacha mazmunini o'zida mujassamlashtiradi hamda bobning umumiy mazmuniga hamohangdir" [33. 10].

Shu o'rinda "Hibat ul-haqoyiq" va "Hayrat ul-abror" dostonlari sarlavhalarini qiyoslab ko'ramiz.

"Hibat ul-haqoyiq" dostonidagi sarlavhalar asliyatda arab tilida berilgan. Ularning joriy nashrlardagi tarjimalarida jiddiy kamchiliklar mavjud bo'lib, bu haqda yuqorida tilga olingan S.Tohirovning risolasida atroflicha ma'lumot berilgan. Quyida shu manba asosida ba'zi sarlavhalarni solishtiramiz:

Annay'ul avvalu: Fimanfaatil ilmi va mazratil jahili.

(Birinchi bob: Ilmning manfaati va johillik, bilimsizlikning zarari haqida).

Annay'ur robi'u: Fi barris saxavati va mazammatil buxli.

(To'rtinchi bob: Saxovatning baraka keltirishi hamda baxillikni mazammat qilish, tahqirlash haqida).

Korinib turibdiki, sarlavhalarda (garchand ular ancha soda bo'lsa-da) tazod-qarshilantirish usuli yetakchilik qiladi. Mutafakkir biron-bir fazilat haqida fikr yuritganda, odatda uning ziddi haqida ham gapiradi. Bu o'z navbatida fikrning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

"Hayrat ul-abror"dagi ko'pchilik maqolatlarda ham shunday usulni ko'rishimiz mumkin:

"Ilm sipehrining baland axtarlig'idakim, jahl tunin yorutmoq uchun "ayn"i quyoshdin va "lom"i oydin "mim"i kunduzdin nishona aytur. Va jahl shomi tiyra manzarlig'idakim, g'aflat chohini zalolat kechasida zohir qilib, bu kechada shaqovatdin fasona aytur. Va olimning bovujudi falokat quyoshidek sarbalandlig'i va johilning bovujudi ganju mol tufroq aro najandlig'i".

O'ziga xos annotatsiya mazmunidagi ushbu sarlavhani yuqoridagi bilan tenglashtirib bo'lmaydi, albatta. Biroq Navoiy yaratgan sarlavhada ham qarshilantirish usuli yetakchilik qilishi (ilm-jahl) yaqqol namoyon

bo'lmoqda. Xuddi shunday xususiyatni dostonning qanoat, rostliq kabi boblariga bitilgan sarlavhalar haqida ham aytish mumkin.

“Hibat ul-haqoyiq” va “Hayrat ul-abror” dostonlari kompozitsiyasining mushtarak jihatlaridan yana biri, ikkala asarda ham iqtiboslar – Qur'on oyatlari va hadislardan unumli fiydalanganligidadir. “Hibat ul-haqoyiq” dostoni tarkibida arab tilidagi ko'plab matnlar mavjud bo'lib, ular muayyan oyat yoki hadisga ishora qiladi. Masalan:

“Qolan nabiyyu sallollohu alayhissalam xubbud dunya ra'su kuli xatiyyatin”.

(Dunyoga muhabbat qo'yish barcha xatoliklarning manbai ekanligi haqida nabiyy alayhissalomning aytganlari).

Biroq bu kabi matnlar muallif emas, boshqa bir shaxs tomonidan kiritilgan izohlardir. Dostonning bevosita matnida ham bir qator oyat va hadislarining turkiy tarjimasi keltiriladi:

Tavoze' qiliqni ko'turur idi,
Takabbur tutar erni kemshur qo'di.
Ulug'sinma zinhor ulug' bir bayot,
Ulug'lug' mening, siz alinmang tedi.

(Tavoze' qilgan kishini xudo yuksaltiradi, takabburlik kishini tubanlashtiradi. Zinhor ulug'lik da'vosini qilma, chunki ulug' bir tangridir. **U ulug'lik menga xos, siz bunga urinmang**, deb aytgan).

Kudazgil tilingni, kel az qil so'zung,
Kudazilsa bu til kudazlur o'zung.
Rasul: **“Erni o'tqa yuzun otquchi,**
Til ul” tedi, yig' til, yul o'ttin o'zung.

(*Tilingni tiy, so‘zingni qisqa qil, bu til tiyilsa, o‘zing ham saqlanasan.*
Rasul: “Kishini o‘tga (jahannamga) yuzi bilan tashlovchi narsa uning tilidir”,- deb aytdi, shuning uchun tilingni tiy, o‘zingni o‘tdan tort, asra)
 [34.71].

Shunday hodisani Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonida ham ko‘rishimiz mumkin:

Hadis o‘lmish nabiyydin bo‘yla hodis,
 Ki **olim keldi payg‘ambarg‘a voris.** [50. 328]

Qayda ado aylagasen bu sipos,
 Kim seni deb xayri bashar **xayri nos** [50. 234].

Dostonning nasriy bayonida bayt shunday tabdil qilingan: *Kim bo‘lmasin seni "Odamlarning eng yaxshisi" deyishadi. Bu maqtovlarni sen qanday oqlaysan* [25. 345].

Tabdildagi "*Kim bo‘lmasin*" jumlasida g‘aliz chiqqanligi seziladi. Shuningdek "sipos" so‘zi "maqtov" emas "nemat uchun shukrona" degan manoni ifodalaydi.³² Binobarin, gap "kimningdir" maqtovini oqlamoq" haqida emas shukrona keltirish haqida bormoqda. "Xayri bashar" birikmasi gapning egasi bo‘lib, misraning mazmuni "Insoniyatning eng yaxshi vakili seni insonlarning yaxshisi deb atadi". Navoiy "xayri bashar" - insoniyatning eng yaxshi vakili deganda Muhammad (a.s.)ni nazarda tutgan hamda "Xayrun nasi man yanfaulinnas", ya'ni "Insonlarning eng yaxshisi boshqalariga naf keltiradiganidir" degan hadisga bevosita ishora qilmoqda.

³² Farhangi zaboni tojiki. 2-jild. 244–sahifa.

Demak baytning mazmuni: Payg‘ambar (a.s.) seni insonlarning yaxshisi deb atadi. Buning shukronasini qanday ado etasan [32].

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni “Xamsa”larning birinchi dostonlari an’anasida yozilgan bo’lsa-da, asar kompozitsiyasida Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostoniga hamohang bo’lgan jihatlar anchagina. Buni dostonning umumiy tuzilishi, muqaddima va asosiy boblarning mazmun-mundariyasi, sarlavhalarning tuzilishi va uslubi hamda bir qator badiiy detallar (iqtiboslar keltirish, tasvir vositalaridan foydalanish va h.k.)da ko’rishimiz mumkin. Bu esa shoir va mutafakkir Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonini yaratishda Ahmad Yugnakiyning adabiy an’analari xususan, axloqiy qarashlaridan ham bahramand bo’lganligini ko’rsatadi. Keyingi fasllarda shu fikrlarni yana-da asoslovchi misol va matnlarni imkon doirasida tahlil qilishga harakat qilamiz.

2.2. “Hayrat ul-abror” dostonining g’oyaviy mundarijasida Adib Ahmad axloqiy qarashlariga hamohanglik.

“Hayrat ul-abror” “Xamsa”ning nazariy dasturi bo’lish bilan birga, Alisher Navoiy qarashlarining ham o’ziga xos qomusidir. Buyuk mutafakkir Alloh taolo va uning barcha buyukliklari haqida so’z yuritib, u yaratgan xazina – koinot va Yer kurrasidagi eng go’zal durdona bu Inson ekaniga alohida urg’u beradi:

Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g’araz inson edi.
Turfa kalomingg’a dog’i komil ul,
Sirri nihoningg’a dog’i homil ul. [50. 21]

Bu bilan shoir hamma imkoniyat va afzalliklarga ega bo'lgan hazrati Insonning o'z mavqeini qanday saqlashi lozimligi masalalariga diqqatni qaratadi. Shundan so'ng hazrati Rasululloh, nazm sohasining daholari Nizomiy, Xusrav va Jomiyar, tasavvufning atoqli arboblari, podshohlik saltanatning ardoqli namoyandasi haqida so'z yuritib, ularning shu sohada namuna va ibrat ekanliklariga ishora qiladi. Shunday qilib, "Hayrat-ul abror"ning fikriy-nazariy qurilmasining asosiy sababini ham ana shulardan izlash mumkin. Demak, asosiy diqqat hazrati Insonga qaratilgan ekan, u qanday bo'lmog'i kerak va qanday bo'lmasligi kerak degan masalaga javob dostonning maqolotlarida nazariy umumlashma tarzida bayon etiladi.

Bu jihatdan asar Adib Ahmadning dostoni bilan mutlaq hamohangdir. Adib Ahmad ham inson kamoloti muammosini asosiy maqsad qilgan. Biroq u inson kamolotini uning axloqi bilan belgilagan bo'lsa, Alisher Navoiy bundan tashqari ruhiyat muammosi, ko'ngil javhariga ham e'tibor qaratadi. Adib Ahmad bilim haqida gapirsa, Alisher Navoiy ko'proq ma'rifat haqida fikr yuritadi.

Shundan bo'lsa kerak, maqolotlarda, bir tomondan, insonning ma'naviy-ma'rifiy fazilatlarini, jamiyat oldidagi burchi va vazifalari to'g'risida so'z yuritilsa, ikkinchi tomondan, hazrati Insonga dog' tushiradigan qabih illatlardan bahs yuritiladi hamda ular qoralanadi.

Jumladan, insonning imonli va e'tiqodli bo'lishi masalalari birinchi (imon) va ikkinchi (islom) maqolotlarda bayon etilsa, uning (bu o'rinda sulton-podshoh sifatida tilga olinadi) adolatli (3-maqolot), karam, saxovatli (5-maqolot), odobli (6-maqolot), qanoatli (7-maqolot), vafodor (8-maqolot), haqiqiy oshiq (9-maqolot), to'g'ri, rost (10-maqolot), ilm-ma'rifatli (11-maqolot), odamlarga foydasi tegadigan (13-maqolot) dehqon kabi bo'lish masalalari ham alohida alohida qarab chiqilgan. Bular Insonning komilligiga xizmat qiluvchi fazilatlar bo'lib, shu maqolotlarning har biridan keyin

keltirilgan kichik hikoya va masallarda ular yanada kuchaytiriladi. Hazrati Insonga dog' tushiradigan adolatsizlik, riyokorlik-firebgarlik (4-maqolot), johillik (15-maqolot), manmanlik (16-maqolot) va boshqa yomon xislatlar esa tanqid qilinadi, demakki, ulardan uzoq bo'lish, ularga qarshi kurashish g'oyasi olg'a suriladi.

Ana shu maqolotlarning ayrimlarini ko'zdan kechirish masalani yorqinroq gavdalantirishda ko'maklashadi. "Hayrat ul-abror"ning uchinchi maqoloti "Salotin bobidakim,...adolatlari "ayn"ining chashmai zuloli mulk bo'stonin serob qilg'ay, to bu bo'stondin amniyat va farog'at gullari ochilg'ay..." tarzida boshlanadigan sarlavhaga ega. Demak, maqolotda so'z podshohlar va ularning adolatli bo'lishlari lozimligidan bormoqda. Darhaqiqat, maqolotda aniq bir podshoh misolida emas, balki umumlashtirilgan holda so'z yuritilgan. Unda podshohning mamlakat va xalq oldidagi burch va vazifalari-adolatli bo'lish, mulkni obod qilish, osoyishtaligini saqlash, fuqarolarni himoya qilish belgilangan. Shuning bilan birga podshohning bu vazifalarni bajarish o'rnida adolatsizlikka yo'l qo'ygani, aysh-ishratga berilgani, kecha-kunduz fisq-fujur-yaramas ishlar bilan band bo'lgani kabilarga e'tibor qaratilib, bu hol podshohlikdan kuzatilgan asosiy maqsaddan uzoq ekanligi alohida uqtiriladi va bu yo'ldan qaytib, adolatli bo'lishga da'vat etiladi:

Haq seni adl etgani sulton etib,
Zulm ila sen xalqni vayron etib...

Necha bu bexudluq ila yilu oy,
Voy, agar kelmasang o'zungga voy...

Zulmni tark aylavu dod aylagil,

Marg kunidin dog'i yod aylagil...

Sahvungg'a de uzr, tavahhum bila,
Zulmdin et tavba, tazallum bila. [50. 128-129].

Maqolotning oxirida, ya'ni ikkinchi qismida esa Shohi G'oziyning adolati mavzusida bir hikoyat keltirilgan. Ma'lumki, Shohi G'oziy laqabi XV asrning ikkinchi yarmida hukmronlik qilgan Sulton Husayn Boyqaroga nisbatan ham qo'llanilgan. Demak, Alisher Navoiy bu hikoyada Sulton Husayn Boyqaro faoliyatidan bir lavhani badiiyat qoniyatlari asosida qalamga olgan. Hikoyatda Shohi G'oziy adolatligi bilan hurmat qozongan podshoh sifatida talqin qilingan. Shuning bilan birga, unda qonun (bu o'rinda shariat qonunlari nazarda tutilgan) oldida shohu gadoning tengligi muammosi amaliy tarzda tasvirlangan. Qonun oldida shohu gado tengligi adolatning barqaror bo'lishi uchun asosiy omilhamdir. Albatta, bu Alisher Navoiyning orzusi edi, Alisher Navoiy shunday sharoit va shunday zamon bo'lishini xohlardi.

"Hayrat ul-abror"ning maqolotlarida insonning komillikka erishuvi uchun zarur bo'lgan ma'naviy-ma'rifiy omillar ham keng tarzda qalamga olingan. Jumladan, odob va hayoni insonning eng ajoyib ma'naviy fazilatlaridan deb biladi:

Elga sharaf bo'lmadi johu nasab,
Lek sharaf keldi hayovu adab.

Chunki yog'in manbai o'ldi hayo,
Qatrasi tuprog'ni qilur kimyo.

Bo'lmas adabsiz kishilar arjmand,
Past etar ul xaylni charxi baland. [50. 155]

Odoblilikning shartlari sifatida ota-ona hurmatini joyiga qo'yish, katta-kichikka shafqatli, mehribon bo'lish, xizmat lavozimini adolat va insof ila ado etish kabilar ham belgilangan.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy insonning ma'naviy-ma'rifiy jihatdan komillikka erishuvi bilan bog'li bo'lgan ko'pgina masalalarni qalamga oladiki, ular insonning ijtimoiy hayotdagi vazifa va burchlarini talab darajasida ado etishiga ham ijobiy ta'sir etadi.

“Hibat ul-haqoyiq” dostonidan farqli o'laroq, Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni epik xususiyatga ham ega. Undagi maqolotlardan so'ng o'sha mavzularga daxldor bo'lgan kichik hikoyat va masallarning keltirishi ham bejiz emas. Chunki bu hikoyatlarda ham tarixiy shaxslar hamda badiiy to'qima timsollar qatnashar ekan, ular ijtimoiy toifalarning turli guruhlariga mansub shaxslardir: podshoh (Iskandar - XIV maqolot, Anushervoni odil - VI maqolot, Sulton Muhammad Xorazmshoh - XI maqolot, Shoh G'oziy - III maqolot, Bahrom - XIX maqolot), tasavvuf ahli (Ibrohim Adham - II maqolot, Boyazid Bistomiy – I maqolot, Shayx Iroqiy - IX maqolot, Imom Faxr Roziy - XI maqolot, Xoja Muhammad Porso va Xoja Abu Nasr - XX maqolot), xorkash (tikon teruvchi), dehqon, oddiy fuqaro - ikki yor, qone` va boshqalar.

“Hayrat ul-abror” dostonining mazmun-mohiyati jaholatga qarshi kurash g'oyasi bilan sug'orilgan. Zero insonlar va jmiyatlar o'rtasidagi barcha ixtiloflar va fojealarning asl doyasi aynan bilimsizlik va jaholatdir:

Odam aro ko'r ne tafovut turur,
Qibla anga tengri, munga but turur. [50. 138]

Insonlar orasida qanday tafovut borligini ko'rgin. Birov qibla deb tangriga yuzlansa, boshqa birov butga yuzlanadi.

Ahmad Yugnakiyning dostonida ham shu g'oyaga urg'u berilganligi ko'zga tashlanadi:

Bilik bilmagandin bir ancha bo'dun,
O'z ilgin but etib idim bu tedi. [34. 68]

Bilimsiz bo'lganliklari uchun qancha-qancha odamlar o'z qo'llari bilan but yasab, unga "tangrim shu" deb sig'indilar.

“Hibat ul-haqoyiq” va “Hytrat ul-abror” dostonlarida muhokama qilinadigan muhim masalalaridan biri to'g'rilik, rostlik masalasidir. “Hibat ul-haqoyiq”ning til odobi haqidagi bobida rost so'zlash odobi va fazilatlar haqida rang-barang tamsillar keltiriladi:

Ko'ni so'z asaltek, bu yalg'an basal,
Basal yeb achitma og'iz, ye asal.

Yo yolg'on so'z igtek ko'ni so'z shifo,
Bu bir so'z uzog'i urulmish masal. [34. 70]

To'g'ri so'z asal kabidir, yolg'on so'z esa sarimsoq piyozdir. Sarimsoq piyoz eb og'zingni achitma, asal egin. Yoki yolg'on so'z kasallik kabidir, chin so'z esa shifodir, bu ma'noda ko'plab masal va ibratli maqollar to'qilgan.

Bu masala “Hayrat ul-abror”da rostlik haqidagi maqolotda yana-da kengroq va mukammalroq yoritiladi:

Ulki, shior ayladi yolg'on demak,
Bo'lmas ani eru musulmon demak.

Ikki muallifning saxovat va buxl haqidagi qarashlarida ham hamohanglikni kuzatishimiz mumkin:

“Hibat ul-haqoyiq” dostonida:

Tabi'atta yigi ot ayibsizi,
Axiyliq erur bil, buxl ko'rsuzi. [34. 76]

Inson tabiatidagi eng yaxshi, eng savobli fazilat (ism) saxovatdir, eng ko'rsizi (xunuki, yomoni) esa buxldir.

“Hayrat ul-abror” dostonida:

Buxl erur borchasifatdin xasis,
Lek saxo javhari asru nafis. [50. 145]

E'tiborli tomoni shundaki Alisher Navoiy dostonidagi ayrim baytlar Ahmad Yugnakiy dostonidagi to'rtliklarni to'g'ri tahlil qilishga yordam beradi. Quyidagi to'rtlikka e'tibor qarataylik:

Bu dunyo nengitin yegu kezugluk,
Ul ortuq tilama vabal yitguluk.
Tariqlik teb aydi achunni Rasul,
Tariqlikda qatlan tari edguluk.

To'rtlikning so'nggi ikki misrasi barcha nashrlarda quyidagicha tabdil qilinadi: *Rasul dunyo hayotining asosi ekinzor (ekinzordan pishiq, yaxshilik*

urug'ini ter). Dehqonchilik bilan shug'ullangan kishilarning ozuqasi yaxshilanadi, deb aytdi [25. 237].

Baytda asosiy e'tibor dehqonchilikka qaratilgandek, dehqonchilik sharaflangandek taassurot hosil bo'ladi.

“Hayrat ul-abror”da quyidagi baytga duch kelamiz:

Dunyo erur mazraayi foxira,
“Addunya mazraatil oxira”.

Baytning ikkinchi misrasi hadis bo'lib, uning ma'nosi “Dunyo oxiratning ekinzoridir”.

“Farhod va Shirin” dostonida hadis mazmunining yanada aniqroq sharhini ko'ramiz:

Chu mazra' ichra sochting har ne dona,
Hamul dona, ko'targung jovidona.

Chu mahsulidin o'lmas kimsa qochmoq,
Keraktur yaxshiliq tuxmini sochmoq.

(Ekinzorga qanday don sochsang, o'shani yig'ib olasan. Hosilidan qochib qutulishning iloji yo'q ekan, yaxshilik urug'ini sochish kerak).

Ahmad Yugnakiyning yuqoridagi baytida ham aslida shu hadisga ishora etilmoqda: ***Rasul dunyoni ekinzor deb atadi. Ey ekin ekuvchi, ekin ekishda kechikma.***

Yuqoridagi baytlarning barchasiga asos bo'lgan manba payg'ambar (a.s.)ning «Dunyo oxiratning ekinzoridir» degan hadislaridir. Bu dunyoda

ekilgan urug‘, ya’ni qilingan yaxshi amallar, ezgu ishlar, ibodatning mahsuli oxiratda yig‘ib olinadi. Mazkur hadisning mazmuni YUsuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» dostonida yanada aniqroq ifodalangan:

Tarig‘lig‘ turur bu ajun, ey elig,
Neku eksa anda alir bu ilig.³³

Bu dunyo, ey elig, misli ekinzor,
Nima eksang, ani o‘rmoqliging bor.³⁴

Demak, baytning birinchi misrasi hadisga ishora bo‘lib, ikkinchi misra muallifning da’vatidir. Uni «yaxshilik urug‘ini ter» emas, «yaxshilik urug‘ini ek» deb sharhlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ikkinchi bob davomida o‘rganilgan masalalar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi. “Hibat ul-haqoyiq asari yaratilgan davrdan boshlab turkiyzabon xalqlar orasida, turli ijtimoiy tabaqa vakillari, turli toifadagi kishilar orasida katta shuhrat qozondi. Asar XV asrda Movarounnahr (Samarqand) va Xuroson adabiy muhitida muayyan ta’sir doirasiga ega bo‘lgan. Temuriylar davrida asarning uyg‘ur va arab yozuvlarida bir necha marta ko‘chirtirilganligi buning yordin dalilidir. Binobarin, Adib Ahmad adabiy merosini mazkur adabiy muhitning turkiyzabon namoyandalari ijodi (Sakkokiy, Atoyi) bilan qiyosan tadqiq etish muhim ahamiyar kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan turkiy va fors-tojik she’riyatining eng muhim yutuqlarini o‘z ijodida jamlagan, boyitgan va shu yo‘l bilan ham turkiy ham fors-tojik adabiyoti uchun namuna bo‘larlik favqulodda yuksak darajadagi bebaho durdona asarlarni maydonga keltirgan Alisher Navoiy adabiy merosi

³³ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – T.: Fan, 1972. 77-bet.

³⁴ Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – T.: Cho‘lpon, 2007. 154-bet.

Adib Ahmaq hikmatlari bilan qiyosan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi, buning uchun barcha asoslar mavjud. Zero Alisher Navoiy ijodida XV asrga qadar yaratilgan (ayniqsa turkiy tilda) hamda insoniyat tarixida muayyan iz qoldirgan deyarli barcha buyuk asarlarning u yoki bu darajadagi ta'sirini ko'rish mumkin.

Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostoni "Xamsa"larning birinchi dostonlari an'anasida yozilgan bo'lsa-da, asar kompozitsiyasida Adib Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" dostoniga hamohang bo'lgan jihatlar anchagina. Buni dostonning umumiy tuzilishi, boblar mazmuni, sarlavhalar hamda bir qator badiiy detallarda ko'rishimiz mumkin. Bu esa shoir va mutafakkir Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostonini yaratishda Ahmad Yugnakiyning adabiy an'analariidan ham bahramand bo'lganligini ko'rsatadi.

"Hibat ul-haqoyiq" va "Hayrat ul-abror" dostonlarining mazmun-mohiyati jaholatga qarshi kurash g'oyasi bilan sug'orilgan. Ikkala muallif ham insonlar va jmiyatlar o'rtasidagi barcha ixtiloflar va fojealarning asl doyasi aynan bilimsizlik va jaholat ekanligini ta'kidlaydi.

Adib Ahmad va Alisher Navoiyning to'g'rilik, rostlik saxovat va buxl haqidagi qarashlarida ham hamohanglikni kuzatishimiz mumkin. E'tiborli tomoni shundaki Alisher Navoiy dostonidagi ayrim baytlar Ahmad Yugnakiy dostonidagi to'rtliklarni to'g'ri tahlil qilishga yordam beradi. Bob davomida bunga misol bo'ladigan bir qator matnlar tahlilga tortildi.

3-BOB:

**ALISHER NAVOIUNING IJTIMOIIY-FALSAFIY
QARASHLARIDA ADIB AHMAD HIKMATLARINING BADIY
IFODASI VA TAKOMILI**

**3.1. “Hibat ul-haqoyiq” dostonidagi ijtimoiy qarashlar va ularning
Alisher Navoiy ijodiga ta’siri.**

Yurtboshimiz asosli tarzda ta’kidlaganlaridek, “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy sha’nu shuhratini dunyoga tarannum qilgan so’z san’atkoridir... olamda turkiy va forsiy tilde so’zlashuvchi biron-bir inson yo’qki, navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa”.³⁵ Darhaqiqat, Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosi besh yarim asr davomida turli millat vakillari bo’lgan adabiyotshunos, sharqshunos olimlar tomonidan tadqiq va tahlil etilmoqda. Xususan, Alisher Navoiy ijodining undan oldin yashagan, unga zamondosh bo’lgan hamda undan keyin yashab ijod etgan Sharqning boshqa mutafakkirlari adabiy merosi bilan munosabati masalasida qator-qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Shular qatorida turkiy mumtoz adabiyotning ilk namoyandalaridan biri bo’lmish Adib Ahmad Yugnakiy va uning “Hibat ul-haqoyiq” asari bilan Navoiy ijodining bog’liqlik jihatlariga doir turli hajm va mazmundagi ilmiy izlanishlarni ham qayd etish mumkin. Ma’lumki, Adib Ahmad shaxsiyati haqida ma’lumot beruvchi yagona manba (o’z asarini inobatga olmaganda) Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasidir. Binobarin, Ahmad Yugnakiy hayoti va adabiy merosi haqida fikr yuritgan har bir kishi Alisher Navoiy asariga ham murojaat etadi. Biroq Alisher Navoiy va Adib Ahmad

³⁵ Karimov. I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008-yil. 47-bet.

o'rtasidagi ijodiy munosabat "Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi ma'lumotlar bilangina chegaralanib qolmaydi.

Ko'pgina ilmiy manbalarda Alisher Navoiyning "Minshaot" asaridagi Badiuzzamon Mirzoga maktubi, unda "Hibat ul-haqoyiq"dan parcha keltirganligi qayd etiladi. Darhaqiqat, "Munshaot" asaridagi 56-tartib raqami bilan berilgan maktub [51. 183-184] Badiuzzamon Mirzoga qaratilgan bo'lib, quyidagicha boshlanadi: "Payg'ambar sallallohi alayhi vasallam buyurubturkim, "rizo urrobbi fir-rizail valadi va saxatun arrobbi fi saxatul validi" ya'ni tengri taolo rizosi ota rizosig'a vobastadur. Bas kishi ota rizosin hosil qilsa, tengri taolo rizosin ham hosil qilmish bo'lg'ay va ota g'azabig'a uchrasa, tengri taolo g'azabig'a uchramish bo'lg'ay. Mundoq bo'lg'ondin so'ngra kishi nechuk ota rizosidin ayru dam urg'ay yo qadam qo'yg'ay. Va mashoyix rahimulloh so'zi bukim, "valaduka rabbuka", ya'ni otang parvardigoringdur, bu jihatdinkim, tengri taolo seni yo'qdin bor qilmoqqa vasila uldur va tufuliyatdin shabob sinnig'acha parvarish berguvchi ul. Va Hakim Sulaymon alayhirrahmata val g'ufroon so'zidurkim, ota qodiri qayyum, ona roziqi marsum va Adib Ahmad rahmatulloh debdurkim,

Ruboiya:

Atodin xato kelsa ko'rma xato,
Savob bil xato toki qilsa xato.
Atoning xatosini bilgil savob,
Seni yuz balodin qutqarg'ay xudo. [51. 184]³⁶

Keltirilgan she'riy matn to'rtlik shaklida (a, a, b, a), aruzning mutaqoribi musammani mahzuf vaznida (fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'ul)

³⁶ Nazarimizda, ikkinchi misraning qofiyasi "xato" emas, "ato", to'rtinchi misradagi so'z esa "qutarg'ay" tarzida o'qilishi lozim.

yozilganligi, pand-nasihat mazmunida ekanligi, albatta Adib Ahmad hikmatlariga hamohang. Biroq “Hibat ul-haqoyiq” dostonining mavjud qo’lyozmalarida va nashrlarida ushbu to’rtlik mavjud emas. Boz ustiga mazmunan unga yaqin bo’lgan to’rtlikni ham izlab topish mushkul.

Mazkur she’r ko’proq Yusuf Xos Hojibning dostonidagi “Atang pandini sen qatig’ tut qatig’...” deb boshlanuvchi to’rtlik uslubini eslatadi. Binobarin, birinchi bobda aytilgan fikrga yana qaytish ehtiyoji tug’iladi. Alisher Navoiy “Hibat ul-haqoyiq” dostonining bizga ma’lum bo’lmagan nusxasi yoki Adib Ahmad hukmatlarining og’zaki tarqalgan variantlaridan foydalangan.

Alisher Navoiy o’tmish va zamondosh tasavvufshunos mutafakkirlar, xususan, Abdurahmon Jomiydan farqli o’laroq turkiy tasavvuf namoyandalari faoliyati va ijodiga alohida e’tibor bilan qaraganligi sir emas. “Nasoyim ul-muhabbat”da buni alohida ta’kidlagan holda turk mashoyixlarining ko’pchiligi haqida ma’lumot beradi, hikmatgo’ylarning hikmatlaridan misollar keltiradi: “Va turk mashoyixi zikri ham («Nafahot ul-uns»da) ozroq erdi, oni dog’i Hazrat shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad YAssaviy (r.a.)din bu zamong’acha ulcha mumkin bor tilab, topib, zikrlarin va ba’zi holotu so’zlarin o’z mahallida darj qildim” [53]. Akad. B.Valixo’jayev bu haqda fikr bildirib: “Alisher Navoiy... mutasavvuflar haqida turkiy- o’zbek tilida tazkirani yaratib, unga ko’p yangiliklar kiritdi, turkiy mashoyix-mutasavvuflar tarixini ham o’sha davr nuqtayi nazaridan birinchi bo’lib mukammal tarzda maydonga keltirdi”, - deb yozadilar.

Demak Alisher Navoiy turkiy tasavvuf namoyandalarining adabiy merosi, hikmatlariga ham alohida e’tibor bilan qaragan, ularda aks etgan dono fikrlardan bahramand bo’lishga intilgan. Bu o’z navbatida Navoiy dunyoqarashining, uning borliq, jamiyat va inson haqidagi qarashlarining

shakllanishida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan. Shular qatorida, albatta, Adib Ahmad hikmatlari ham alohida o'ringa ega.

Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida, ayniqsa, “Xamsa” tarkibidagi dostonlar, “Lison ut-tayr”, “Nazm ul-javohir”, “Mahbub ul-qulub” kabi axloqiy-falsafiy mazmun-mohiyatga ega bo'lgan asarlarida Adib Ahmad hikmatlariga hamohang bo'lgan fikr va qarashlarga duch kelamiz. Bunday adabiy ta'sir nishonalari ikki xil hodisa bilan asoslanadi:

1. “Xeyli elning muqtadosi” bo'lgan Adib Ahmadnidg “...mavoizu nasoyih”ga to'la hikmatlari Navoiy yashagan davrda “aksar turk ulusida ... shoye” edi. Ular bilan bevosita tanishgan Alisher Navoiyning ma'naviy-axloqiy qarashlari shakllanishida mazkur hikmatli to'rtliklarning muayyan ta'siri bo'lganligi shubhasiz.

2. Sharqning deyarli barsha mutafakkirlari kabi Adib Ahmad ham Alisher Navoiy ham birinchi navbadda islomiy manbalar, xususan, “Qur'oni Karim” oyatlari, Payg'ambar (a.s.) hadislari hamda din va tasavvuf namoyandalarining hikmatlaridan ozuqlangan. Binobarin, ularning qarashlarida mushtaraklik, hamohanglikning mavjud bo'lishi tabiiydir.

Shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy ijodi, aniqrog'i, uning axloqiy-tarbiyaviy va falsafiy qarashlarini Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asari bilan qiyosan o'rganish navoiyshunoslikning muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Bu birinchi navbatda Ahmad Yugnakiy hayoti hamda adabiy merosiga yana bir bora ilmiy nazar tashlash, uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan bahsu munozaralarga munosabat bildirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, Alisher Navoiy asarlarining mazmun va g'oyaviy mundariyasi haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lish imkonini yaratadi.

Adib Ahmad o'zining axloqiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan o'rta asr turkiy madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi. Alisher Navoiy

yashagan davrda ham undan keyin ham xalq orasida juda mashhur bo'lgan Adib Ahmad hikmatlari, uning bilim va jaholat, til odobi, saxovat va baxillik, harislik, tavoze va kibr kabi umuminsoniy ahamiyatga molik mavzulardagi fikr va qarashlari o'zbek mumtoz adabiyotida, xususan, buyuk mutafakkir Navoiy adabiy merosida ham o'ziga xos tarzda davom ettirilganligini ko'rishimiz mumkin.

Alisher Navoiy o'zining “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida Adib Ahmad haqida ma'lumot berar ekan, uning ijodidan aynan pand-nasihat ruhidagi ikki baytni misol tariqasida keltiradi. Shulardan biri bilim va bilimsizlik haqidagi tamsildir:

So'ngakka ilikdur, eranga bilik,

Biliksiz eran – ul so'ngaksiz ilik. [53. 427]

(Suyakka ilik kerak bo'lganidek, er kishiga bilim kerak. Bilimsiz er kishi “so'ngaksiz ilik” kabidir).

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ushbu bayt matn “Hibat ul-haqoyiq”da aynan uchramasa-da, uning Ahmad yugnakiyga tegishli hikmat ekanligi shubhasiz. U quyidagi to'rtlikning biroz o'zgargan (qisqargan) shaklidir:

So'ngakka yiliktek, eranga bilik,

Eran ko'rki aql ul, so'ngakning yilik.

Biliksiz iliksiz so'ngaktek xoli,

Yiliksiz so'ngakka sunulmas alik. [34. 66]

So'ngakka ilik qanchalik kerak bo'lsa, er kishiga bilim ham shunchalik kerakdir, er kishining ko'rki aqlidir, so'ngakning ko'rki esa ilikdir. Ilmsiz odam iliksiz so'ngak kabi bo'shdir, iliksiz so'ngakka esa hech kim qo'l uzatmaydi [34.67].

Alisher Navoiy Adib Ahmad hikmatlaridan aynan bilim va bilimsizlik haqidagi misralarni tanlaganligi bejiz emas. Zero bu masala Adib Ahmadning “Hibat ul-haqoyiq” dostonida dastlabki muhokama etiladigan va alohida e’tibor qaratilgan mavzudir.

Adib Ahmad va Alisher Navoiyning bilim va ma’rifat haqidagi qarashlarini solishtirganda bir qator mushtarak jihatlar ko’zga tashlanadi. Bu borada, ayniqsa Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni xotimasidagi Shoh G’arib mirzoga nasihatlarini e’tiborga molik.

Avvalambor qayd etish kerakki, ikkala mutafakkir ham o’z qarashlarini diniy manbalar muqaddas oyat yoki payg’ambar (a.s.) hadislarini bilan quvvatlashga harakat qiladi:

Bilik birla olim yuqor yo’qladi,
Biliksizlik erni cho’kardi qo’di.
Bilik bil usanma, bil ul haq Rasul,
Bilik Chinda bo’lsa, siz arqang tedi.

(Bilim bilan olim yuqoriga ko’tariladi, ilmsizlik esa kishini tubanlashtiradi. Bilimli bo’l, hech qachon erinma, haq Rasul (Muhamad a.s.): "Ilm Chinda bo’lsa ham, siz uni izlab boring", deb aytgan. [34. 67].

Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonidagi Shohg’arib mirzoga nasihatlarida shunday yozadi:

Biravkim qilsa olimlarg’a ta’zim,
Qilur go’yoki payg’ambarg’a ta’zim.

Hadis o’lmish nabiyydin bo’yla hodis,
Ki olim keldi payg’ambarg’a voris. [3. 328]

Shahekim, ilm nuri topti zoti,
Aning to hashr qoldi yaxshi oti.

Alisher Navoiyning fikricha bilim insonning boshqa kamchiliklarini yopadigan ulug' ne'matdir:

Kishi farzan avonu zolim o'lsa,
Va lekin nuktadonu olim o'lsa.

Baso zohid kishikim om ichinda,
Anga muhtoj o'lur islom ichinda. [3. 328]

Adib Ahmadning fikriga ko'ra aynan shunday xususiyat insonga xos bo'lgan yana bir fazilat, ya'ni saxovatda ham mavjud:

Qamug' til axi er sanosin ayur,
Axiylik qamug' ayb kirini yuyur.
Axiy bo'l senga so'z so'kunch kelmasun,
So'kunch kelgu yo'lni axiylik tiyur. [34. 76]

(Hammaning tili saxovatli kishining madhini qiladi, saxiylik kishilarning barcha kamchiliklarini yuvib ketadi. Saxiy bo'l, senga la'nat, so'kinch kelmasin, la'nat keltiradigan yo'lni saxovat berkitib qo'yadi).
[34. 77].

Ahmad Yugnakiy o'z davrida ma'naviy tanazzul nishonalari kurtak yoza boshlaganligi haqida shunday yozadi:

Amal qo'ydi olim va zahid vara',
 Arif raqs chiqardi ayur xush sama'.
 Bida'tin yiqikli kishi qalmadi,
 Anin kunda arta turur bu bida'.

(Olim amalini, zohid toat-ibodatini tark etdi, orif raqsga tushish odatini chiqardi, yoqimli ashula aytmoqda. G'ayri shar'iy ishlardan tiyib turuvchi kishilar qolmadi, shuning uchun, bu bid'at (yangi shariatdan tashqaridagi odat)lar kundan-kunga ortib bormoqda).

Alisher Navoiy dunyoqarashida ham ilm va amal masalasi alohida o'rin tutadi:

Olim agar qat'i amal aylasa,
 Ilmig'a shoyista amal aylasa...

Oni bilim gavharining koni bil,
 Gavharu kon har ne desang oni bil. [50....].

Demak, Alisher Navoiyning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari shakllanishida boshqa turkiy mashoyix qatorida Ahmad Yugnakiy hikmatlarining muayyan ta'sirini e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q. Buni buyuk shoir va mutafakkirning nafaqat "Hayrat ul-abror" dostoni, balki boshqa she'riy va nasriy asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Badiyzzamon mirzoga nasihat qilish asnosida ham murabbiy Adib Ahmad hamda Hakim Ota hikmatlari (yoxud xalq orasida ularga nisbat berilgan hikmatlar)dan foydalanganligi ham bejiz emas albatta. Zero aynan pand-nasihat (forscha

andarz) borasida turkiy madaniyat vakillarining merosi dunyo madaniyati tarixida yetakchilardan hisoblanadi.

3.2. Alisher Navoiyning inson va olam haqidagi falsafiy qarashlari, ularda Adib Ahmad hikmatlarining ta'siri.

Ahmad Yugnakiy inson hayotida ilmning ahamiyati yuksakligini qayd etadi. Turli o'xshatishlar orqali ilm va ilimli kishilarni ulug'laydi. Bilimli kishini qimmatli dinor, bilimli xotin-er o'rnida, ilmlining oti abadiy, u o'lsa ham nomi o'chmaydi, bilimlarning biri bilimsizning mingiga teng, ilmsiz esa, yemishsiz daraxt, bilimsiz erkak-xotin kishidir, ilmsiz iliksiz suyak, ilmsiz tirik bo'lsa ham o'lik o'rnida va hokazo.

Adib ta'kidicha, bilimli kerakli so'zni biladi, keraksiz so'zni aytmaydi. Bilimsiz esa nima deganini bilmaydi. Tili boshini yeydi:

Biliklik keraklik so'zin so'zlayur,
Keraksiz so'zini ko'mib kizlayur.
Biliksiz na aysa ayur uqmayin,
Aning o'z tili o'z boshini yeyur...

Adib Ahmad bilimli ayolni johil erkakdan ustun qo'yadi va o'z davri uchun nihoyatda ilg'or va jasoratli fikrni ilgari suradi:

Baholiq dinor ul biliklik kishi,
Bu johil biliksiz bahosiz bishi.
Biliklik biliksiz qachon teng bo'lur?
Biliklik tishi er, johil er tishi. [34. 64]

Bilimli kishi baholik dinordir, ilmsiz johil kishi qimmatsiz tanga kabidir. Bilimli kishi bilan bilimsiz odam qachon teng bo'ladi? Bilimli ayol erkak kabi, bilimsiz erkak esa ayol kabidir.

Alisher Navoiy qit'alarida esa shunga o'xshash munosabatni poklik haqidagi qarashlarda ko'rishimiz mumkin:

Yuz tuban nopok erdin yaxshiroq,
Pok xotunlar oyog'ining izi.

Ahmad Yugnakiy til odobi haqida fikr yuritib, til bilan kishilarga ozor yetkazish eng og'ir gunohlardan ekanligini qayta-qayta uqtiradi.

Xiradliqmu bo'lur tili bo'sh kishi,
Telim bashni yedi bu til, so'z bo'shi.
O'chukturma erni tilin bil bu til,
Bashaq tursa butmas, butar o'q bashi [25. 221].

Ta'kidlash joizki, yuqoridagi misralarda ikkita (imlo va tinish belgilarida) xato borligi hamda «tilin» so'zidagi –in qo'shimchasini tushum kelishigi shakli deb tushunish natijasida mavjud sharhlarda nuqson yuzaga kelgan. –In qo'shimchasi bu o'rinda vosita kelishigi vazifasida bo'lib, «til bilan» degan ma'noni hosil qilgan. S.Tohirovning risolalarida to'rtlik quyidagicha tabdil qilinadi:

Tiliga ehtiyotsiz kishini aqlli deb bo'ladimi? Bu til va o'ylovsiz so'z ko'p kishilarning boshini yedi. Inson(lar)ni til bilan o'chakishtirma, (shuni) bilginki, bu til yaralasa (yarasi) tuzalmaydi, o'qning yarasi esa bitib ketadi.

To'rtlikdan keyin quyidagi matn kiritilgan:

«Jarahatus sihami lahat tiyamu va la yalsamu ma jarahallisani»
[25. 221].

Mazmuni: *O‘q bilan etkazilgan jarohat bitib ketadi, biroq til bilan etkazilgan jarohat bitmaydi.*

Mazkur hikmat bir qator manbalarda, shoir va mutafakkirlarning asarlarida, ba’zan ayrim o‘zgarishlar bilan tilga olinadi. «Sharhi qavoidi a’rob» kitobida bu jumla Hazrat Alining hikmatlaridan biri sifatida keltirilgan.³⁷

جراحة السنان لها التيام ولا يلثم ما جرح السنان

Jarahat as-sinani laha-ttiyamu va la yalsamu ma jarahal lisani.

«Hibat ul-haqoyiq»dagi matn bilan qiyoslaganda, birgina farq kuzatiladi. Unda «o‘q» ma’nosini bildiruvchi «*as-siham*» so‘zi qo‘llangan bo‘lsa, bu matnda «tig‘» ma’nosini bildiruvchi «*as-sinan*» so‘zi qo‘llangan. Alisher Navoiyning «Nazm ul-javohir» asarida ham Ali (r.a.)ning mazmunan shunga hamohang bo‘lgan hikmatlari mavjud :

Zarb ul-lisani ashaddu min ta’n us-sinani.

Hazrat Navoiy bu hikmatni quyidagicha sharhlaydilar:

Chun sinsa ko‘ngul zaxmi zabon og‘rig‘idin,
Kim, ermas aning og‘rig‘i jon og‘rig‘idin,
Har neki sanga etar lison og‘rig‘idin,
Bilgilki, qatig‘durur sinon og‘rig‘idin.³⁸

³⁷ (شرح قواعدالاعراب) Toshbosma. 8-bet. Ushbu manba S.Tohirovning shaxsiy kutubxonalarida saqlanadi.

³⁸ Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 15-tom. – T.: Fan, 1999. 160-bet..

Izoh: Ikkinchi misra boshidagi soʻz «kim» emas, «kam» boʻlishi kerak. (Til bilan koʻngilga yetkazilgan ogʻriq jon ogʻrigʻidan kame mas). Shunda misra mantiq hamda yuqoridagi hikmatga muvofiq boʻladi.

Demak, Adib Ahmadning «Hibat ul-haqoyiq» dostoni hamda Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarlari tarkibidagi hikmatlar aynan bitta manba asosida, yaʼni Hazrat Ali (r.a.)ga nisbat beriluvchi hikmat asosida maydonga kelgan [34. 17-18].

Shoir til xususida ibratli fikrlar aytadi. Tili boʻsh kishi boshini yeydi. Oʻq yarasi bitadi. Til yarasi tuzalmaydi. Axmoqning qoni tili tufayli toʻkiladi.

Koʻni soʻz asaltek, bu yalgʻan basal,
Basal yeb achitma ogʻiz, ye asal.
Yo yolgʻon soʻz igtek koʻni soʻz shifo,
Bu bir soʻz uzogʻi urulmish masal. [34. 70]

(Toʻgʻri soʻz asal kabidir, yolgʻon soʻz esa sarimsoq piyozdir. Sarimsoq piyoz eb ogʻzingni achitma, asal egin. Yoki yolgʻon soʻz kasallik kabidir, chin soʻz esa shifodir, bu maʼnoda koʻplab masal va ibratli maqollar toʻqilgan).

Toʻgʻri soʻz asal, yolgʻon soʻz sarimsoq piyoz, chin soʻz shifo, yolgʻon soʻz kasal kabi, toʻgʻri gapirish, sir bermaslik muhim.

Ogʻiz-til bezagi koʻni soʻz turur,
Koʻni soʻzla soʻzni, dilingni beza.

Ahmad Yugnakiy saxovatni ulugʻlaydi, baxillikni qoralaydi:

Yemishsiz yig'ochtak karamsiz kishi,
Yemishsiz yig'ochni kesib o'rtagil.

Kamtarlik, sabr-qanoat inson bezagi:

Ulug'likka tegsang, yangilma o'zung,
Qali kiysang atlas, unutma bo'zung.

Umuman, Yugnakiy o'z dostonida o'quvchiga pand-nasihat bildiradi. Asarda turli badiiy vositalar, xalq maqollari, ta'birlari uchraydi. O'xshatish, takrir, tazod kabi san'atlardan keng foydalanilgan.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, asarning hozirga qadar qilingan tabdillari, sharhlari mukammal emas. Ularda jiddiy nuqsonlar bor. Ular ba'zida tushunmovchilikka sabab bo'lsa, ba'zida tamoman muallif maqsadiga zid ma'noni yuzaga keltiradi. Quyida ayrim misollarni ko'rib o'tamiz:

Menga bo'lsa fazling, qutuldi o'zum,
Agar bo'lsa adling, qatig'liq menga.

Bayt manbalarda quyidagicha tabdil qilingan: Fazilating, adolating menga nasib bo'lsa, boshimga tushgan qiyinchilikdan qutulish uchun yetarlidir [25. 233].

Inson balog'atga yetib, aql-hushi kirgandan keyin ham bilib-bilmay xato yoki gunohga qo'l uradi. Binobarin, agar adolat bilan hukm qilinadigan bo'lsa, dunyoda jazodan qutulib qoladigan kishinning topilishi amri mahol. Shuning uchun orif kishi tangrining adolatidan emas, rahmatidan, fazlidan umidvor bo'ladi. Zero, parvardigorning rahmati shunchalik kengki, uning

oldida bir umr qilingan ibodat ham, bir umr qilingan xato va gunoh ham dengizga tushgan tomchi singaridir. Yuqoridagi baytda ayni shu ikki tushuncha yoki holat bir-biridan qarshilantirish usulida ajratilgan. Binobarin, "...Adolating menga nasib bo'lsa... qiyinchiliklardan qutulish uchun yetarlidir", deb sharhlash muallif maqsadiga tamoman teskaridir. Baytni quyidagicha sharhlash lozim:

Agar fazling (rahmating) menga nasib bo'lsa, (oxirat azoblaridan) qutulaman. Agar adolat yuzasidan (ya'ni qilingan amallarga muvofiq) hukm qilsang, azobda qolishim tayin.

Tariqlik teb aydi achunni Rasul,
Tariqlikda qatlan tari edguluk.

Rasul dunyo hayotining asosi ekinzor (ekinzordan pishiq, yaxshilik urug'ini ter). Dehqonchilik bilan shug'ullangan kishilarning ozuqasi yaxshilanadi, deb aytdi [25. 237].

Sharhda baytning ikkala misrasidagi fikr ham payg'ambar (a.s.)ga nisbat berilgan, shuningdek, ikkinchi misraning mazmuni noo'rin kengaytirilgan. Natijada, asosiy e'tibor dehqonchilikka qaratilgandek, dehqonchilik sharaflangandek taassurot hosil bo'ladi. Dehqonchilik chindan ham sharafli, barakali ish. Biroq baytda tamoman boshqa maqsad ko'zlangan.

Rasul dunyoni ekinzor deb atadi. Ey ekin ekuvchi, ekin ekishda kechikma.

Ushbu baytga asos bo'lgan manba payg'ambar (a.s.)ning "Dunyo oxiratning ekinzoridir" degan hadislaridir. Bu dunyoda ekilgan urug', ya'ni qilingan yaxshi amallar, ezgu ishlar, ibodatning mahsuli oxiratda yig'ib olinadi. Mazkur hadisning mazmuni Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida yanada aniqroq ifodalangan:

Tariqliq turur bu ajun, ey elig,
 Neku eksa anda alir bu ilig.
 (Bu dunyo, ey elig, misli ekinzor,
 Nima eksang, ani o'rmoqliging bor).

Demak, baytning birinchi misrasi hadisga ishora bo'lib, ikkinchi misra muallifning da'vatidir. Uni "yaxshilik urug'ini ter" emas, "yaxshilik urug'ini ek" deb sharhlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dissertatsiyaning yakunlovchi bobi davomida keltirilgan matn va tahlillar, bildirilgan fikr-mulohazalar asosida quyidagi umumiy xulosalarni qayd etmoqchimiz.

Alisher Navoiyning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari shakllanishida boshqa turkiy mashoyix qatorida Ahmad Yugnakiy hikmatlarining muayyan ta'sirini e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q. Buni buyuk shoir va mutafakkirning nafaqat "Hayrat ul-abror" dostoni, balki boshqa she'riy va nasriy asarlarida ham ko'rishimiz mumkin. Badiyzzamon mirzoga nasihat qilish asnosida ham murabbiy Adib Ahmad hamda Hakim Ota hikmatlari (yoxud xalq orasida ularga nisbat berilgan hikmatlar)dan foydalanganligi ham bejiz emas albatta. Zero aynan pand-nasihat (forscha andarz) borasida turkiy madaniyat vakillarining merosi dunyo madaniyati tarixida yetakchilardan hisoblanadi.

XULOSA

Adib Ahmad Yugnakiy shaxsiyati hamda “Hibat ul-haqoyiq” dostonining g’oyaviy-badiiy xususiyatlarini turli nuqtai-nazardan tadqiq va tahlil etish anchayin uzoq tarixiy jarayon bo’lib, bunda usmonli turk (Najib Osim, Muhammad Fuod Ko’prulu, Banarli Nihad Sami), o’zbek (Abdurauf Fitrat, S.Muttalibov, E.Rustamov, Q.Mahmudov, N.Mallayev, M.Imomnazarov, Q.Tohirov, G.Xo‘janova, S.Tohirov va boshqalar), rus (V.Radlov, V.Bartold, T.Kavalskiy, Y.E.Bertels) va boshqa xalqlarga mansub bo’lgan adabiyotshunos olimlarning ilmiy izlanishlari mavjud. Biroq, shunga qaramay, Adib Ahmad Yugnakiy shaxsiyati va “Hibat ul-haqoyiq” dostonining kompozitsiyasi, g’oyaviy-badiiy xususiyatlariga oid barcha masalalar ham o’z yechimini topgan deb bo’lmaydi. Xususan, Adib Ahmad shaxsiyatiga oid bir qator masalalar, “Hibat ul-haqoyiq”ning kompozitsiyasi, matni va sharhlari, ayniqsa, asarning keying davr turkiy xalqlar adabiyoti, shu jumladan o’zbek adabiyotiga ta’siri masalalari adabiyotshunoslikda yetarli darajada yoritilmagan.

“Hibat ul-haqoyiq” asari yaratilgan davrdan boshlab turkiyzabon xalqlar orasida, turli ijtimoiy tabaqa vakillari, turli toifadagi kishilar orasida katta shuhrat qozondi. Asar XV asrda Movarounnahr (Samarqand) va Xuroson adabiy muhitida muayyan ta’sir doirasiga ega bo’lgan. Temuriylar davrida asarning uyg’ur va arab yozuvlarida bir necha marta ko’chirtirilganligi buning yordini dalilidir. Binobarin, Adib Ahmad adabiy merosini mazkur adabiy muhitning turkiyzabon namoyandalari ijodi (Sakkokiy, Atoy) bilan qiyosan tadqiq etish muhim ahamiyar kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan turkiy va fors-tojik she’riyatining eng muhim yutuqlarini o’z ijodida jamlagan, boyitgan va shu yo’l bilan ham turkiy ham fors-tojik adabiyoti uchun namuna bo’larlik favqulodda yuksak darajadagi

bebaho durdona asarlarni maydonga keltirgan Alisher Navoiy adabiy merosi Adib Ahmaq hikmatlari bilan qiyosan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi, buning uchun barcha asoslar mavjud. Zero Alisher Navoiy ijodida XV asrga qadar yaratilgan (ayniqsa turkiy tilda) hamda insoniyat tarixida muayyan iz qoldirgan deyarli barcha buyuk asarlarning u yoki bu darajadagi ta'sirini ko'rish mumkin.

Adib Ahmad haqidagi tadqiqotlarning aksariyatida Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi ma'lumotlarga murojaat etiladi va turlicha munosabat bildiriladi. Bu esa buyuk mutafakkirning birgina asari tarkibida keltirilgan mu'jaz ma'lumot adabiyotshunoslik uchun nechog'li ahamiyat kasb etishini yaqqol namoyon etadi. Vaholonki, Adib Ahmad va Alisher Navoiy o'rtasidagi ijodiy munosabat faqat "Nasoyim ul-muhabbat"dagi ma'lumotlar bilangina cheklanmaydi.

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida yuqorida tilga olingan masala va muammolarni izchil tadqiq va tahlil etishga harakat qildik. Garchand dissertatsiyada qo'yilgan asosiy masala Alisher Navoiy adabiy merosida Adib Ahmad hikmatlari, adabiy an'alarining ta'siri masalasi bo'lsa-da, tadqiqot davomida o'rni bilan Ahmad Yugnakiy ijodini o'rganish muammolari haqida ham munosabat va fikr-mulohazalarimizni bildirishga harakat qildik.

Magistrlik dissertatsiyasi davomida o'rganilgan ilmiy va badiiy materiallar asosida quyidagi umumlashma xulosalarga kelindi.

Turkiy adabiyotning eng qadimgi ijod namunalaridan boshlab inson xulqi va ma'naviyatiga oid qarashlar turli shakllarda o'z ifodasini topgan. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari tarkibida keltirilgan ko'plab adabiy parchalarda pand-nasihat mazmuni ifodalanganligi, ularning aksariyati Islomdan oldingi davrlarning ijodiy mahsuli ekanligi bir qator olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Biroq tom ma'nodagi didaktik

adabiyotning shakllanishi bu tilda so'zlovchi xalqlar orasida islom madaniyatining yoyilishi bilan bog'liqdir. Qur'on oyatlari hamda Payg'ambar (a.s.) hadislarining mazmun-mohiyatini sharhlash, keng jamoatchilikka yetkazish, tafakkuriga singdirish, shu yo'l bilan mukammal axloq egasini tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida pandnoma ruhidagi adabiyot X-XI asrlarda madaniyat tarixining o'ziga xos hodisasi sifatida shakllandi va rivojlandi.

Turkiy didaktik adabiyotning ilk namoyandalaridan biri, "...mavoizu nasoyih"ga to'la hikmatlari bilan "xeyli elning muqtadosi" bo'lgan Adib Ahmad o'zining axloqiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan o'rta asr turkiy madaniyat tarixida o'chmas iz qoldirdi. "Hibat ul-haqoyiq" asari yaratilgan davrdan boshlab turkiyzabon xalqlar orasida katta shuhrat qozondi, turli toifadagi kishilarning sevimli asarlaridan biriga aylandi. Asar tarkibidagi hikoyatlarning XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyo, Kavkazorti va Kichik Osiyo hududlarida yashovchi xalqlar orasida keng tarqalganligi, uning ta'sirida bir qator asarlar maydonga kelganligi buning yordini dalilidir.

Ahmad Yugnakiyning hikmat-to'rtliklari XV asrda keng tarqalish barobarida, o'zgarishlarga ham uchragan. Bundan shoir hikmatlarining XV asrga qadar ko'proq og'zaki tarzda tarqalganligini taxmin qilish mumkin. Alisher Navoiy ham, bizningcha, "Hibat ul-haqoyiq" dostonining qo'lyozma nusxasidan emas, "aksar turk ulusida" og'zaki tarzda mashhur bo'lgan baytlardan namuna keltirgan, degan taxminni ham bildirish mumkin.

Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" tazkirasidagi ma'lumotlar Adib Ahmad shaxsiyatiga oid bir qator masalalarni oydinlashtirish bilan birga, adabiyotshunos va tilshunos olimlarni murakkab holatga ham solib qo'ydi. Bu ma'lumotlar 90-yillarida qizg'in bahs-u munozaralar predmetiga aylandi. Ushbu munozaralarga G.Xo'janovanning nomzodlik dissertatsiyasida

hamda Q.Tohirovning ilmiy maqolalarida mantiqiy yakun yasaldi, deb aytish mumkin.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni “Xamsa”larning birinchi dostonlari an’anasida yozilgan bo’lsa-da, asar kompozitsiyasida Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” dostoniga hamohang bo’lgan jihatlar anchagina. Buni dostonning umumiy tuzilishi, boblar mazmuni, sarlavhalar hamda bir qator badiiy detallarda ko’rishimiz mumkin. Bu esa shoir va mutafakkir Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonini yaratishda Ahmad Yugnakiyning adabiy an’analaridan ham bahramand bo’lganligini ko’rsatadi.

“Hibat ul-haqoyiq” va “Hayrat ul-abror” dostonlarining mazmun-mohiyati jaholatga qarshi kurash g’oyasi bilan sug’orilgan. Ikkala muallif ham insonlar va jmiyatlar o’rtasidagi barcha ixtiloflar va fojealarning asl doyasi aynan bilimsizlik va jaholat ekanligini ta’kidlaydi.

Adib Ahmad va Alisher Navoiyning to’g’rilik, rostlik saxovat va buxl haqidagi qarashlarida ham hamohanglikni kuzatishimiz mumkin. E’tiborli tomoni shundaki Alisher Navoiy dostonidagi ayrim baytlar Ahmad Yugnakiy dostonidagi to’rtliklarni to’g’ri tahlil qilishga yordam beradi.

Alisher Navoiyning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari shakllanishida boshqa turkiy mashoyix qatorida Ahmad Yugnakiy hikmatlarining muayyan ta’sirini e’tirof etmasdan ilojimiz yo’q. Buni buyuk shoir va mutafakkirning nafaqat “Hayrat ul-abror” dostoni, balki boshqa she’riy va nasriy asarlarida ham ko’rishimiz mumkin. Badiyzzamon mirzoga nasihat qilish asnosida ham murabbiy Adib Ahmad hamda Hakim Ota hikmatlari (yoxud xalq orasida ularga nisbat berilgan hikmatlar)dan foydalanganligi ham bejiz emas albatta. Zero aynan pand-nasihat (forscha andarz) borasida turkiy madaniyat vakillarining merosi dunyo madaniyati tarixida yetakchilardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Siyosiy va mafkuraviy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e`tibor - ma`naviyatga, kelajakka e`tibor.- Toshkent: O`zbekiston, 2009.
3. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» // Barkamol avlod - O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq, 1997.
4. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: YAngi avlod, 2001.- 184 b.

II. Ilmiy adabiyotlar

5. Абдурахмонов А. Туркий адабиётнинг қадимги даври. – Сам.: СамДУ нашри, 2004.
6. Абдурахмонов А. Қадимги туркий адабиёт. – Сам.: СамДУ нашри, 2004.
7. Абдуғафуров А. Буюк бешлик сабоқлари. - Т.:, 1995.
8. Адабиётшунослик терминлари луғати (Н.Маллаев таҳрири остида). – Т.: Ўқитувчи, 1967.
9. Алишер Навоий «Хамса»си. Тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986.
10. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳлилуғати. 4 томлик. 1-4-томлар. – Тошкент, 1983-85.
11. Банарли Ниҳад Сами. Ресмли Турк эдебияти Тарихи. – Истанбул: Милли эғитим Басимеви, 2001. – С. 634
12. Бертельс Е.Э. Навоий (Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси). – Т: Тафаккур қаноти, 2015.
13. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Наваи и Жами. – М.: Наука, 1965.

14. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи (Ўқув қўлланма). II қисм. – Сам.: СамДУ нашри, 2002.
15. Валихўжаев Б. Валихўжаев Б.Н. Хамса такмили. Алишер Навоий «Хамса»си. Тадқиқотлар. -Т.: Фан, 1986. 81-89 б.
16. Valixo`jayev B. Mumtoz siymolar. -Т.: A.Qodiriy, 2002.
17. Vohidov R., Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (O`quv qo`llanma) –Т.: Yangi asr, 2006.
18. Жалолов Т. Хамса талқинлари. - Т., 1961.
19. Каримов Қ. Илк бадиий дoston. – Т.: Фан, 1976.
20. Кароматов Ҳ. Қуръон ва ўзбек адабиёти. – Тошкент, 1996.
21. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. - Тошкент: Ёзувчи, 1996.
22. Комилов Н. Хизр чашмаси. –Т.: Маънавият, 2005.
23. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976.
24. Маънавият Юлдузлари. – Тошкент: Халқ мероси, 2001.
25. Маҳмудов Қ. «Ҳибат ул-ҳақойиқ»асарининг филологик таҳлили. – Т.: Фан, 1972.
26. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Фан, 2005.
27. Очилов Э. Барҳаёт сиймолар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012.
28. Рустамов Э. Узбекская поэзия в первой половине XV века. – М.: Наука, 1963.
29. Салоҳий Д. Навоий назмиёти (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2012.
30. Салоҳий Д. Навоий эпик шеърляти (Услубий қўлланма). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011.
31. Тоҳиров С. Хамсанависликнинг илк қoидаси хусусида. СамДУ «Илмий ахборотнома»си. 2013 йил 4-сон. 57-61 бетлар.

32. Тоҳиров С. Алишер Навоийнинг "Ҳайрат ул-аброр" достони нашрларидаги айрим муаммолар хусусида. БухДУ Илмий ахбороти. 2013 йил, № 2, 70-73-бетлар.
33. Tohirov S. Matn va tahlil (Uslubiy qo'llanma). - Samarqand: SamDU nashri, 2008.
34. Тоҳиров С. Адиб Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достон: матн, тадқиқ ва таҳлил. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2009.
35. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz. - Samarqand: SamDU nashri, 2010.
36. Тоҳиров Қ. Алишер Навоий ва Адиб Аҳмад Югнакий // Алишер Навоий меросининг жаҳон сивилизатсиясида тутган улкан мавқеи (республика илмий конференцияси материаллари). – Самарқанд: СамДУ нашри, 2001. 71-72-бетлар.
37. To'xliiev B. Adabiyot (Akademik litsey va kasb-hunar kolejlari uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2002.
38. Хидирназаров С. Поема «Ҳайрат ал-аброр» («Смятение праведных») Алишера Навои. Проблемы типологии и поэтической архитектоники. Автор. канд. наук. –Ташкент, 1990.
39. Хўжанова Г. «Ҳибат ул-ҳақойиқ» поетикаси. Фил. фанл. номз. диссертатсия автореферати. – Т., 2001.
40. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 1-том. – Т.: Фан, 1971.
41. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2-том. – Т.: Фан, 1974.
42. Қаяумов А. «Ҳайрат ул-аброр» талқини. - Т., 1977.
43. Qosimov B. va boshqalar. Adabiyot 10-sinf uchun. – T.: O'qituvchi, 2004.
44. Қурбонов А. «Хамса»даги насрий сарлавҳалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 2004-йил, 1-сон. 31-34-бетлар.
45. Қуръони карим (Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи А.Мансур). – Т.: Чўлпон, 1992.

46. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. - Т.: Фан, 1993.

47. Ҳайитметов А. «Хамса»да ислом нури. - Т.: Фан, 1998.

ИВ. Адабий манбалар

48. Adabiyot (Majmua). 10-sinf uchun. – Т.: O'qituvchi, 2004.

49. Алишер Навоий. Хамса (Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев). – Т.: ЎзбФА нашриёти, 1958. 7-1662-саҳ.

50. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 7-том. Ҳайрат ул-аброр. – Т.: Фан, 1991.

51. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 8-том. Фарҳод ва Ширин. – Т.: Фан, 1991.

52. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 14-том (Маҳбуб ул-қулуб. Муншаот). – Тошкент: Фан, 1998.

53. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 15-том (Назм ул-жавоҳир). – Тошкент: Фан, 1999.

54. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик. 17-том. – Т.: Фан, 1997.

55. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006.

56. Амир Хусрави Деҳлави. Осори мунтахаб. Жилди якӯм. Ширин ва Хусрав. – Душанбе: Ирфон, 1971. 7-230-саҳ.

57. Аҳмад Югнакий. Ҳибат ул-ҳақойиқ (нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қ.Махмудов). – Т.: 1971.

58. Навоийнинг нигоҳи тушган. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. 144-145-бетлар

59. Низомии Ганжави. Куллиёт. Жилди якум. Хусрав ва Ширин (Нашрга тайёрловчи З.Ахрорий). – Душанбе: Ирфон, 1983. 24-412-саҳ.

60. Муборак мактублар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1987.

61. Хожа Аҳмад Яссавий. Девони ҳикмат. – Т.: 1992.
62. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. (Нашрга тайёрловчи ва сўз боши муаллифи Қ.Каримов). – Т.: Фан, 1971, 1972 (иккинчи нашр).
63. Yusuf Hos Hojib. Qutadg'u bilig. – Т.: Cho'lpon, 2007.
64. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. – Т.: Фан, 2003. 196-223-бетлар.
65. O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. I tom. – Toshkent: Uzped-nashr, 1941. 24-bet.
66. Ўзбек адабиёти (хрестоматия). 5 томлик. 1-том. – Т.: Бадиий адабиёт, 1960.
67. Ўзбек адабиёти (9-синф учун мажмуа). – Т.: Ўқитувчи, 1993.
68. Қадимий ҳикматлар. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1987.

MUNDARIJA

Magistrlik ishining umumiy tavsifi.....	3
1-bob: Adib Ahmad hayoti va adabiy merosini o'rganish muammolari.....	11
1.1. Adib Ahmad hayoti va adabiy merosini o'rganish tarixiga bir nazar.....	11
1.2. Adib Ahmad shaxsiyati va adabiy merosini o'rganishda Alisher Navoiy asarlarining o'rni.....	26
2-bob: “Hibat ul-haqoyiq” va “Hayrat ul-abror” dostonlarining qiyosiy tipologiyasi.....	39
2.1. “Hibat ul-haqoyiq” va Hayrat ul-abror” dostonlari kompozitsiyasida mushtaraklik va xususiylik.....	39
2.2. “Hayrat ul-abror” dostonining g'oyavoy mundarijasida Adib Ahmad axloqiy qarashlariga hamohanglik.....	55
3-bob: Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida Adib Ahmad hikmatlarining badiiy ifodasi va takomili.....	65
3.1. “Hibat ul-haqoyiq” dostonidagi ijtimoiy qarashlar va ularning Alisher Navoiy ijodiga ta'siri.....	65
3.2. Alisher Navoiyning inson va olam haqidagi falsafiy qarashlari, ularda Adib Ahmad hikmatlarining ta'siri.....	73
Xulosa.....	80
Fo ydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	84